

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK 372.36**

QURBONOVA SEVARA SUYUNOVNA

**Boshlang‘ich ta’lim jarayonida iqtidorli o‘quvchilar imkoniyatlarini
rivojlantirish texnologiyasi**

5A111701- «Boshlang‘ich ta’lim»

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar:
p.f.n., dots.Nurullayeva Sh.U.**

QARSHI- 2013

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Kichik maktab yoshidagi iqtidorli o‘quvchilar imkoniyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari.	10
I.1. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	10
I.2. Shaxs iqtidori va qobiliyatlarning psixologik strukturasi.	18
I.3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtidorli o‘quvchilar bilan olib borilayotgan ishlar tahlili	26
I bob bo‘yicha xulosa	31
II bob. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida iqtidorli o‘quvchilar imkoniyatlarini rivojlantirish ishlari mazmuni	32
II.1. Ta’lim jarayonida iqtidorli o‘quvchilar bilan olib boriladigan ish usullari	32
II.2. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar – o‘quvchilar qobiliyatini o‘stirish asosiy tashkiliy shakli sifatida	45
II bob bo‘yicha xulosa	54
III bob. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida iqtidorli o‘quvchilar bilan olib boriladigan ishlar samaradorligi	55
III.1. O‘quvchilarning iqtidorlilik darajalarini aniqlash metodikasi.	55
III.2. Tajriba-sinov ishlari natijalarining yakuniy tahlili	63
III bob bo‘yicha xulosa	68
Xulosalar	69
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	73
Ilovalar	79

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonimizning istiqboli ko'p jihatdan barkamol intellektual salohiyatli avlodni shakllantirish va unga mos ta'lim–tarbiya olib borishga bog'liq va bunga yurtimizdagi ijtimoiy–tarixiy taraqqiyotning tezkor sur'atlar bilan rivojlanishi, fan–texnika va texnologiyalar sohaslarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarning ta'lim–tarbiya sohasiga keng joriy etilishi asos bo'lmoqda. Bu asoslar o'z Vatanini va xalqini sevadigan, milliy mafkuramizga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan ijodkor shaxsni shakllantirishdek muammo echimini hal etishni ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri darajasigacha ko'tardi. Bu boradagi ishlarning ahamiyatligini Prezidentimiz quyidagicha ta'kidlagan edi: **«Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustivor sohasi deb e'lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq–atfori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz»**. [7; 2] Bu haqda O'zbekiston Respublikasining **“Ta'lim to'g'risida”**gi Qonuni, **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”** va ta'limni isloh qilish borasidagi boshqa me'yoriy hujjatlarida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va shu asosda intellektual salohiyatli ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muhim masalalardan ekanligi ta'kidlangan.

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo'lgan intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish fan–texnika va texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlaridan ta'lim–tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andozalari talablariga to'liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi. Uzluksiz ta'lim tizimining quyi bosqichlaridanoq o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini aniqlash va ta'lim mazmunini shu asosda qurish mehnatning rivojlanishini ta'minlovchi, intellekt va bilimlarni ro'yobga chiqaruvchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Mavzuning dolzarbligi. Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi, faol ijtimoiy muloqotga kirisha oluvchi, o'z fikr-mulohazalarini erkin va to'g'ri ifodalay oladigan yoshlarga bo'lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo'ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham mustaqil fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o'zgalar fikriga qaram bo'lish, turli yot mafkuralarga ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Buyuk kelajak sari" asarida xalqimizning ma'naviy poydevori-bo'lajak davlatimiz tayanchlari juda qadimiy va mustahkam ekanligini ta'kidlaydi [6; 72]. Darhaqiqat, buni hech kim inkor qila olmaydi, chunki xalqimizning ma'naviy me'rosi inson barkamolligidir. Shuning uchun o'quvchi yoshlarni yangicha tafakkurli, yuksak madaniyatli, ijodkor, erkin fikrlovchi, ma'naviy yetuk, barkamol shaxslar qilib tarbiyalashda nafaqat bugungi kun, balki asrlar davomida kurashib kelingan tarixiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, maorif va ta'lim-tarbiya borasida amalga oshirilgan ishlar va qo'lga kiritilgan yutuqlar serqirra bo'lib ulardan hamma davrlarda jumladan, hozirgi kunga qadar va bundan keyin ham samarali foydalanish ijobiy natija beradi. Mazkur davrlarda sharq mutafakkirlari xalqimizning o'tmish davri, kelajagi haqida ilgari surgan ilg'or g'oyalari bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy o'zbek maktabi chuqur bilim va kasb mahoratiga, teran mantiqiy tafakkur va iqtidorga ega bo'lgan, ijtimoiy jihatdan to'la shakllangan shaxsni yetishtiruvchi ta'lim maskaniga aylanishi lozim.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Pedagogik tadqiqotlar taraqqiyotining zamonaviy bosqichlarida ham yangi avlod kadrlarini ta'lim mazmunini modernizastiyalash asosida tayyorlash, ularning qiyofasida eng oliy ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, intellektual salohiyatli yetuk barkamol kadrlarni yetishtirish bo'yicha ko'plab asarlar yaratilgan. O.Musurmonova, S.Nishonova, R.Safarova, M.Qurbonov, J.G'.Yo'ldoshev, X.Ibragimov, B.X.Raximov, M.H.Mahmudov, R.Sh.Asliddinov, Sh.Q.Mardonov, O'.A.Jumanazarov [47, 49, 55, 71, 35, 33, 54, 44, 15, 41, 28] kabi olimlar tomonidan yaratilgan asarlar shular jumlasidandir.

Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va intellektual salohiyatini yuksaltirish asosidagi kasbiy yetuk mutaxassislar tayyorlash muammolari V.K.D'yachenko, M.E.Jumayev, E.A.Klimov, S.N.Markova, V.S.Merlin, L.M.Mitina, V.Karimova, H.Tillashev, B.X.Raximov, O.Hasanboeva, M.H.Mahmudov, D.N.Yo'ldosheva [25,27, 40, 43, 45, 46, 38, 59, 54, 78, 44, 34] va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Ma'lumki, keyingi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyat yuritishni muayyan rejalashtirilgan tartibga soluvchi yondashuv sifatida pedagogik texnologiya nazariyasidan foydalangan holdagi pedagogik faoliyat e'tirof etilmoqda. Jumladan, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashlarga texnologik yondashuv qilish va mazkur jarayonlarga AKT dan keng foydalanishni amalga oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada N.Azizxo'jayeva, S.I.Arhangelskiy, V.P.Bespalko, V.A.Slastenin, Yu.Azlarov, X.A.To'raqulov, K.Zaripov, J.G'.Yo'ldoshev, M.Klarin, M.Ochilov, N.Saydaxmedov, O'.Q.Tolipov, B.L.Farberman, U.Nishonaliev [12, 14, 22, 57, 13, 61, 29, 35, 39, 52, 56, 60, 66, 50] va boshqa

tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijalari ahamiyatlidir. Yuqorida nomlari qayd etilgan mutaxassis–olimlarimizning ilmiy izlanishlari natijalari ta’lim–tarbiya jarayonlarini olib borishning bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashning optimal variantlarini yaratishga muhim didaktik asos bo’la oladi.

O’zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishining hayotiy zarurati va dolzarbligi haqida gapirar ekanlar, inson shaxsini, uning yuksak ma’naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e’tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari ta’lim-tarbiya ishi bilan shug’ullanuvchi har bir pedagog yoki umuman har bir ota-ona oldiga muhim vazifalarni qo’yishini alohida ta’kidlab o’tgan edilar. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo’lmish yosh avlodning bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo’lib o’z yurti va xalkiga sitqidildan mehnat qilish, ozod yurt ravnaqi va baxt-saodati uchun halol mehnat qilishga o’rgatishni nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoiy, o’z Vatani manfaatlariga g’oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablarida olib borilayotgan o’quv-tarbiyaviy jarayon, asosan, o’rta darajada bilimlarni o’zlashtiruvchi o’quvchilarga mo’ljallanadi. Shuningdek, davlat ta’lim standarti talablari ham ko’pgina o’qituvchilar uchun asosiy maqsad bo’lib qolmoqda. Vaholanki, Davlat ta’lim standartlari o’quvchilar tayyorgarlik darajasiga qo’yilayotgan minimal talablarni belgilab beradi. Bunday holat sinfdagi bilimlarni yaxshi va tez o’zlashtiruvchi, iqtidorli o’quvchilar bilan olib borilayotgan ishlarda sustkashlikni va e’tiborsizlikni yuzaga keltirmoqda. Natijada esa har qanday iqtidor, layoqat ham e’tiborsizlik tufayli yuzaga chiqmaydi, rivojlanmaydi va hattoki, so’nib borishi ham mumkin. Umumiy o’rta ta’lim maktablari o’qituvchilari uchun nashr etilayotgan metodik qo’llanma va tavsiyalarda ham iqtidorli o’quvchilar bilan ishlash uchun alohida o’quv materiallari ajratilmagan. Iqtidorli o’quvchilar bilan ishlash muammosi tezkorlik bilan hal etilishi lozim bo’lgan dolzarb muammolar sirasiga kiradi, desak yanglishmaymiz.

Zero, yosh iste’dodlar o’sib, ulg’ayib, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo’shishi aniq. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “Biz rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan zamonaviy davlat qurish yo’liga qadam qo’yib, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari izchillik bilan o’tishni ta’minlar ekanmiz, faqat milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg’unligi zaruratini teran anglaydigan, zamonaviy bilimlarni, intellektual salohiyat va ilg’or texnologiyalarni egallagan insonlarga o’z oldimizga qo’ygan strategik taraqqiyot maqsadlariga erishishi mumkin ekanini hamisha o’zimizga yaxshi tasavvur etib kelmoqdamiz” [8;3].

Modomiki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yosh avlodga tayanar ekanmiz, avvalambor, ta'lim sohasidagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash muammosini dolzarb pedagogik muammolar qatorida bartaraf etishimiz lozim. Bunday mulohazalar magistrlik dissertatsiyamiz uchun tanlangan "**Boshlang'ich ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar imkoniyatlarini rivojlantirish texnologiyasi**" mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi o'quvchilarning kichik maktab yoshidanoq iqtidorini aniqlash va uni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishni belgilab oldik:

1. Iqtidor tushunchasining pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash.
2. Layoqat va iqtidor tushunchasiga doir olimlar qarashlarini tahlil qilish.
3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlash asosida darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir topshiriqlar tizimini tayyorlash.
4. O'quvchilarning iqtidorlilik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish.
5. Muammoga doir tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorlik darajasini aniqlash.

Tadqiqot obyekti kichik maktab yoshidagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti boshlang'ich ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ish usullari, vositalari.

Tadqiqot farazini quyidagicha belgiladik: boshlang'ich ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayoni samaradorligini oshirish mumkin, agarda:

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologik xususiyatlarini yaxshi bilsalar va o'quvchilarda iqtidorlilik darajasini aniqlash metodikasini amalda qo'llay olsalar;
- har bir o'quv predmeti va har bir mavzuga doir iqtidorli o'quvchilar uchun alohida topshiriqlar tizimi ishlab chiqilsa;
- iqtidorli o'quvchilar faoliyati o'qituvchi va maktab psixologik tomonidan doimiy nazorat qilinib, rag'batlantirib borilsa;
- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, ilmiy izlanishlarimiz davomida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda "iqtidor" tushunchasi nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu muammoga doir Sharq mutafakkirlari, pedagog va psixolog olimlar qarashlari o'rganilib, tizimlashtirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ilmiy izlanishlar davomida o'quvchilar iqtidorlilik darajasini aniqlash va rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilganligi va ushbu metodikaning amalda qo'llanuvchanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotimizning ilmiy yangiligi shundaki, izlanishlarimiz davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan iqtidorlilarni aniqlash metodikasi hamda ular iqtidorini rivojlantirishga doir topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

Himoyaga quyidagi holatlar olib chiqildi:

1. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar hamda "iqtidor" tushunchasining pedagogik-psixologik tahlili.
2. Sharq mutafakkirlari va pedagog, psixolog olimlarning ushbu muammoga doir qarashlari.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan iqtidorlilarni aniqlash metodikasi.
4. O'quvchilarda iqtidorni rivojlantirishga doir topshiriqlar tizimi.

Tadqiqot davomida kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari, pedagogik eksperiment, qiyosiy tahlil kabi **pedagogik ilmiy tadqiqot metodlaridan** foydalanildi.

Tadqiqotning **metodologik asosini** Respublika Prezidenti I.Karimovning iqtidorli yoshlarni rag'batlantirishga doir fikrlari, me'yoriy hujjatlar, "iqtidor" tushunchasiga doir pedagogik, psixologik va falsafiy qarashlar tashkil etadi.

Dissertatsiya kirish, uch bob, yetti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI IQTIDORLI O‘QUVCHILAR IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida

Har bir shaxs o‘ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o‘xshash bo‘lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo‘yi-basti bilan boshqa biror kimsaga o‘xshashi mumkin, lekin fe‘li, mijozi va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo‘lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko‘p jihatdan aynan o‘xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba‘zi tafovutlar aniqlangan.

Shaxs - qaytarilmas, u o‘z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual-psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu o‘rinda biz yuqorida ta’rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma-yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoh berish o‘rinli deb hisoblaymiz. Bu - «individ» va «individuallik» tushunchalaridir. **«Individ»** tushunchasi umuman «odam» degan tushunchani to‘ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o‘z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o‘ziga va o‘ziga o‘xshashlarga xos bo‘lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ - insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

«Individuallik» - yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo‘lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o‘ziga xos xususiyatlar majmuini o‘z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo‘lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatleri, emotsiyalari, xulqiga xos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o‘tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta’minlovchi kategoriyalardir. Uning ma’nosi shundaki, bo‘yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko‘z qarashlari, barmoq harakatlari va shunga o‘xshash sifatleri bir xil bo‘lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti, faoliyat motivatsiyasi va boshqalarga aloqador sifatleri majmui bir xil bo‘lgan odamni topib bo‘lmaydi. Ular - individualdir.

Inson tafakkuri, iqtidori va iste’dodiga doir pedagogik, psixologik va falsafiy qarashlarni tahlil qilishdan avval ushbu tushunchaning ma’nosi haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Qobiliyatlar - shaxsdagi shunday individual, turg‘un sifatlerki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko‘rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchilikleri sabablarini tushuntirib beradi.

“Iqtidor” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib kuch-quvvat, qudrat; qodirlik; qobiliyat; holat kabi ma’nolarni anglatadi [70; 264] .

“Iqtidorli” tushunchasi ham arab tilidan olingan bo‘lib kuch-qudratga molik, qudratli, qodir ma’nolarini anglatadi [70; 264].

Jumladan “qobiliyat” tushunchasi mayl, qiziqish, moyillik, qobillik, qodirlik, iste’dod ma’nolarini anglatishi ta’kidlanadi [70; 317].

Umumiy holda iqtidor yoki qobiliyat bilim, ko‘nikma, malakalardan farqli o‘laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual psixologik va jismoniy xususiyatlaridir [70; 317].

Erkin va mustaqil fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli bo‘lgan qobiliyatli yoshlarni tarbiyalash fan–texnika va texnologiyalarining eng so‘nggi yutuqlaridan ta’lim–tarbiya sohasida keng foydalanishni taqozo etadi va bu bilan jahon andozalari talablariga to‘liq javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishiladi. Bunda axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchilarini tarbiyalash eng muhim dolzarb muammolardan biri bo‘lib, unda aqliy mehnatning rivojlanishini ta’minlovchi intellekt va bilimlar ro‘yobga chiqariladi hamda iste’molda ulardan foydalaniladi. Ushbu muammo yechimini hal etishda ajdodlarimiz merosini o‘rganish hamda ulardan pedagogik jarayonda rejalashtirilgan maqsadlarda samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarimiz merosida komil inson tarbiyasi yetakchi g‘oyalardan biri hisoblanadi. Jumladan, qobiliyat tushunchasi ham komil insonning serqirra aqliy faoliyatlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Masalan, Forobiy insonni mavjudotning eng buyuk va yetuk mahsuli deb ataydi. U o‘zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga egadir. Inson aqli yordamida butun mavjudotning mohiyatini tushunadi. «Aql, - deydi u, - jismlarni bunday xislatlardan holi holda tekshirganda u faqat jismlarning mohiyati nimadan iborat ekanligini va sezgilardan nimalar mavhumlashtirganini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Jismni u bilan bog‘liq bo‘lgan belgilardan ajratib oluvchi aql faoliyati shu jismning faqat mohiyatini tekshirish uchun amalga oshiriladi» [31; 123].

Allomaning fikricha, insonning tanasi, miyasi, sezgi organlari tug‘ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, urf-odatlarini, ma’lumoti tashqi muhit va boshqalar bilan muloqotda vujudga keladi. Insonning aqli, fikri ruhiy yuksalishning eng yetuk mahsuli bo‘ladi.

Forobiy «Aql to‘g‘risida»gi risolasida axloqli kishining «o‘n ikki tug‘ma xislati»ni ta’riflar ekan, insonning fikrlash xususiyatiga alohida ahamiyat beradi. Olim, aql-zakovatli inson barcha masala yuzasidan o‘tkaziladigan muhokama va mulohazani tez va to‘g‘ri tushunadigan, uning ma’nosini anglab so‘zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan, xotirasi juda baquvvat bo‘lib, ko‘rgan, eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan, zehni biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu

alamat nimani anglatishini tezda bilib oladigan, fikri va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon bayon eta oladigan, bilimlarni osonlik bilan o'zlashtira oladigan bo'lishini alohida ta'kidlaydi [69; 109].

Nafaqat tibbiyot olamidagi kashfiyotlari, balki ta'lim va tarbiya sohasidagi asarlari bilan ham milliy pedagogika tarixida muhim o'rin tutgan buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino «Tadbiri manozil» asarida insonning fikrlash qobiliyatiga, xayol-xotirasi va iroda sifatlariga yuqori baho beradi. Uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga chog'ishtirib, abstrakstiyalash bilan haqiqatni yolg'ondan ajratish mumkin, xotira yordamida esa idrok qilingan narsa va hodisalar kishi ongida mustahkam saqlanib qoladi va idrok qilingan bir obyekttni ikkinchisidan ajratishga yordam beradi. Xayol kishi ongida obyektiv voqelikning aks ettirilishidir, deb biladi.

Buyuk qomusiy olim, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo'lishida aql, fikr, sezgilarining o'zni haqida so'z yuritarkan, shunday deb yozadi: «Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmog'i mumkin... Istaklarga mehnat tufayli erishiladi» [69; 139]. Olimning fikricha, faqat eshitilgan, ko'rilgan yoki umuman sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar shundayligicha idrok qilinmasdan, balki aql chig'irig'idan o'tkazilsa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

Jaloliddin Davoniy insoniy fazilatlardan donolikni tahlil etarkan, inson aqliy qobiliyati, iste'dodi shakllanishi uchun quyidagi sifatlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi:

birinchisi, zukkolik-zehn o'tkirligi. Bu kishining har bir masalani tezda hal qila olish, unda o'zi istagan natijani o'la bilishida deb ko'rsatadi;

ikkinchisi, fahmlilik. Bunda kishining keraksiz va ikkinchi darajali masalalarga ortiqcha to'xtalmasdan, butun diqqatni muhim va zarur masalalarga tez qarata bilish qobiliyati;

uchinchisi, zehn ravshanligi deb ko'rsatiladi. Bu biror masalani hech qanday qiyinchiliksiz, oson yo'l bilan hal qilish iste'dodi;

to'rtinchisi, bilimni tez egallash qobiliyati. Kishi ma'lum masalaga butun diqqat-e'tiborini qarata olish va uni hech qanday qarama-qarshiliksiz o'zlashtirishi;

beshinchisi, qo'yilgan muammoni tezda anglashi;

oltinchisi, yodlash qobiliyati. Insonning ilgari his etgani va tasavvur qilganlarini esda saqlash qobiliyati;

yettinchisi, xotira. Yod olingan, his qilingan narsalarni kerak bo'lganda eslash qobiliyatini tezda ishga solishi lozim, deb ko'rsatadi.

Demak, Jaloliddin Davoniy kishi yoshlikdan o'z qobiliyatini o'stirishi, rivojlantirishi lozimligi, agar u haqiqiy baxt-saodatga erishmoqchi bo'lsa, yuqoridagi aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beruvchi fazilatlarni egallashga harakat qilmog'i lozim, deydi.

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida badan tarbiyasi bilan bir qatorda fikr tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi. Uning ta'kidlashicha, fikr tarbiyasi «muallimning yordamiga so'nggi darajada muhtojdir» va inson hayotida muhim ahamiyatga ega:

Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikrning oynasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur. [10; 103].

Muammoga oid Sharq mutafakkirlari qarashlari tahlili inson qobiliyati va uni shakllantirish har qanday davrda ham dolzarb muammolardan biri bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Zero, qobiliyatli insonlarga jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim vazifalarni amalga oshirishga qodirdirlar.

AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida iqtidorli o'quvchilarni maxsus dasturlar bo'yicha o'qitishning qariyb yarim asrlik amaliyoti bunday ta'limning hamma yerda yuqori sifatini anglatmaydi. Iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bo'yicha Yevropa kengashi (ESNA) eksprezidenti Dj.Friman ta'kidlaganidek, «iqtidorlilar uchun ko'plab ta'lim dasturlari mavjud, ularning asosida hech bir ilmiy ishlanma mavjud emas, ularning tashkilotchilari o'zlarining xatosizligiga ishonch asosidagina ish ko'radilar». Tushunarliki, ilmiy ishlanma – yuqori yoki past intellektual va ijodiy imkoniyatga ega o'quvchilar uchun yaratilganidan qat'iy nazar istalgan yaxshi dastur yaratish yo'lidagi ilk qadam.

Iqtidorli o'quvchilar uchun dasturlarning o'ziga xosligi nimadan iborat? U umuman mavjudmi? Avval aytilganidek, an'anaviy ta'lim dasturi iqtidorli o'quvchining rivojlanishi uchun o'tib bo'lmas to'siq bo'lishi mumkin, bu iqtidorli o'quvchilarni o'qitish muammosini hal qilish zaruratiga foydasiga asoslardan biri edi. Bundan tashqari, mazkur muammoni o'rganishning yaga bir jahati bor. Yaxshi ma'lumki, ta'lim dasturlari samaradorligi ularning o'zlari mo'ljallangan o'quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlariga muvofiqligiga bog'liq. Maktab ta'limi asosini tashkil qiladigan bilish faoliyati o'quvchining motivatsiyali va kognitiv tavsiflariga muvofiq kelmasa, uning rivojlanishda yuqori darajalarga erishishini kutish mushkul. Iqtidorli o'quvchilar boshqa tengdoshlaridan farqli o'laroq, alohida ehtiyoj va imkoniyatlar bilan tavsiflanishini tan olsak, ularni o'qitish uchun maxsus dasturlar yoki, hech bo'lmasa, shipotetik «o'rtacha» o'quvchiga mo'ljallangan an'anaviy ta'lim dasturlarining qandaydir modifikatsiyalari zarur.

O'quvchilarning psixologik xususiyatlari yoki «iqtidorlilik belgilari» ko'pincha psixologlar orasida katta munozaraga sabab bo'ladi. Iqtidorlilikning asosiy belgilari uzun «ro'yxati» mavjud, ularda iqtidorli o'quvchilarning real hayot va faoliyatda namoyon qiladigan xususiyatlari aks etgan. Odatda, bunday belgilarning mavjudligini o'quvchi xulqi xususiyatlarini kuzatishda baholash mumkin. Qiyinchilik shundan iboratki, iqtidorlilik belgilarining o'zi juda rang-barang va ijtimoiy-madaniy muhitga bog'liq. Bu hol iqtidorli o'quvchilar xususiyatlari «ro'yxati»ga nimalar kiritilishi, nimalar kiritilmasligi, qaysi belgilar albatta namoyon bo'lishi, qaysilari namoyon bo'lmasligi kerakligi haqidagi va h.k. tasavvurlarda sezilarli tafovutlarni keltirib chiqaradi. Fikrimizcha, ajratiladigan belgilardan loaqal bittasi mutaxassis e'tiborini tortishi va uni muayyan vaziyatni batafsil va davomli tahlil qilishga undashi kerak degan pozitsiyani mazkur masalada tobora produktiv deb sanash mumkin.

Barbara Klarkning kitobida aqliy (intellektual), akademik, ijodiy, liderlik iqtidori va vizual hamda ijrochilik san'ati (musiq, rang-tasvir, raqs, drama) sohasida iste'dodini xarakterlaydigan beshta shunday ro'yxat keltiriladi. Bizni umumiy iqtidorlilikka aloqador bo'lgan, o'quvchining aqliy (intellektual) iqtidorliliigi yotadigan ko'p sonli tavsiflardan nimani ajratish mumkinligi qiziqtiradi. Bunday tavsiflar tahlili quyidagi tobora umumiy tavsif (xarakteristika) larni ajratish imkonini beradi:

- keng qamrovli qiziquvchanlik va bilim olishga bo'lgan katta ehtiyoj;
- aqliy yuklamaga bo'lgan katta ehtiyoj;
- qandaydir mashg'ulot yoki faoliyat sohalariga yaqqol ifodalangan qiziqish, nimagadir g'ayriodatiy berilish;
- mustaqil qo'yilgan maqsadga erishish yo'lidagi qat'iyat;
- bilimlarni mustaqil ravishda yangi vaziyatda qo'llash;
- muammoni hal qilishning original usullarini topa bilish malakalarini egallab boradilar.

O'quvchilarning tobora «umumiy xususiyatlarini» ajratayotib, biz uchun favqulotda muhim bo'lgan yana bir fakt – bunday o'quvchilar orasida individual tafovutlar spektrining kengiligini hamma vaqt yodda tutish kerak. Bu ularning qiziqishlarining yo'nalganligiga ham, intellektual o'sish yoki ilgarilash sur'atlariga ham, nihoyat, iqtidorlilikning rivojlanganlik darajasiga ham taalluqli. O'quvchilarda individual tafovutlar spektri shunchalik kengki, amalda o'quvchilarning yoshga oid xususiyatlarini to'lig'icha yopa oladi. Amaliyotda bu iqtidorli o'quvchi bilan bevosita tanishgunga qadar uning xususiyat va imkoniyatlari haqida biror aniq tasavvurlar qilish mumkin emasligida namoyon bo'ladi. Maktabga kelayotgan olti-yetti yoshli o'quvchidan ma'lum doiradagi bilim va malakalarni kutishga haqlimiz. Masalan, alifboni bilish, bo'g'inlarni so'zlarga birlashtirish va yigirmagacha sanash, topishmoq va ertaklarga qiziqish.

O'quvchilarning shu qadar rang-barang ehtiyoj va imkoniyatlarini qondirish uchun an'anaviy ta'lim mazmuni qanday o'zgarishlarni boshdan kechirishi kerak? Boshqacha aytganda, o'quvchilar uchun ta'lim mazmuni qaysi tamoyillarga asoslanishi lozim? Tamoyillar qandayligini aniqlash uchun bu toifa o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyoj va imkoniyatlarinigina emas, balki iqtidorli o'quvchilar ta'limi hal qilishi lozim bo'lgan vazifalarni ham bilish kerak.

Ta'limning markaziy vazifalari, aniqrog'i maqsadlari – o'quvchi individualligini kashf qilish yo'llarini ta'minlash, tizimli tafakkurni, dunyoni yaxlit idrok kilishni va shaxsning ma'naviy-axloqiy asoslarini rivojlantirish sifatida belgilandi. Bu vazifalar iqtidorli o'quvchilarni o'qitishga nisbatan spetsifik (o'ziga xos) sanalmay, balki barcha o'quvchilar uchun dolzarbdir. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish uchun bu vazifalarning qo'yilishi birinchi darajali ahamiyatga ega ekani boshqa gap. Bu ta'limning an'anaviy vazifalari - bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish iqtidorli o'quvchilar uchun maktabga salbiy munosabatning sababi bo'lishi mumkinligi bilan birga ijtimoiy buyurtmaning o'ziga xosligi bilan ham bog'liq.

Axir ijtimoiy buyurtma nuqtai nazaridan, iqtidorli o'quvchilar haqida g'amxo'rlik jamiyat oldida turgan muammolar yechimiga umid, birinchi navbatda, aynan shu o'quvchilar bilan bog'liqligi, ularning madaniyat, fan, iqtisodiyot va texnika rivojiga eng katta hissa qo'shishlari kutilayotgani bilan belgilanadi. Ta'limning yana bir, favqulotda muhim vazifasi – o'quvchining ijodkor shaxsini rivojlantirish haqida ham shu fikrlarni bildirish mumkin.

1.2. Shaxs iqtidori va qobiliyatlarning psixologik strukturasi

Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam o'zining aqli bo'lishini xohlaydi, «Men aqlliman» demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. «Aqlsiz, nodon» degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham hafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning sharq halqlarida biror kimsaga nisbatan «o'ta aqli» yoki «o'ta nodon» iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: «Falonchining o'g'li anchagina aqli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini ko'ydirayotgan emish» degan iboralar aslida «aqllilik» kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), mikdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Qobiliyatlar shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual-psixologik xususiyatlar ekanki, psixologiya fani lug'atida berilgan bu ta'rifi B.M.Teplovning «Qobiliyat va iqtidorlik» kitobidagi tushunchalar bilan yanada tuldirish mumkin: Qobiliyat tushunchasida asosan uchta g'oya mujassam, «*birinchidan*, qobiliyat deganda bir kishining boshqa kishidan farq etib turadigan individual-psixologik xususiyatlar tushuniladi, *kkinchidan*, qobiliyatlar deb xar qanday individual xususiyatlar emas, balki biror faoliyatni yoki kup faoliyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradiganlari tushuniladi.*Uchinchidan*, qobiliyat tushunchasi shaxsda mavjud bulgan bilim, kunikma va malakalarni bildirmaydi».

B.M.Teplov fikriga kura, qobiliyatlar doimo rivojlanmay turolmaydi. Rivojlanmagan, kishi faoliyatida qullanilmay qolgan qobiliyat vaqt utishi bilan yuqoladi. Kup va muntazam ravishda shug'ullanish orqali shaxsda murakkab faoliyat soxalariga nisbatan qobiliyatlar rivojlanadi. Masalan, musiqa, texnika, badiiy ijod, matematika, sport va xokazolar.

Kishi shaxsi qobiliyatlarining xilma-xil turlari mavjud. Birinchi navbatda kishida mavjud bulgan tabiiy yoki biologik qobiliyatlar farqlansa, keyingilari sifatida maxsus, umumiy, nazariy, amaliy, uquv, ijodiy, muloqotga oid, faoliyatga, bilishga oid kabilarni keltirish mumkin.

Ch. Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilford esa aqlni bir qator aqliy operastiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavxumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikastiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potentsialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual potentsial esa bir tomondan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomondan - shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarni oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Shu o'rinda «intellekt» so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt - lotincha so'z - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari - kelajagini XX1 asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota - bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlari juda tez o'zlashtirib olmoqda, jaxon tillaridan bir nechitasi bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishda qiynalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xoxlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi. Hattoki, bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham o'ta tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni echishni xohlaydi.

Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatlar **layoqatlar** deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma

xususiyatlardan - oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoklarning biologik va fizilogik sifatlari, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xohlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini xohlashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehnni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni **iqtidorli** deymiz. Iqtidor - insonning o'z hatti - harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlariga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamharakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero **iste'dod** - har tomonlama

rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan.

Talant (yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat degan ma'noni anglatadi) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat individual xususiyatdir. Talantning asosiy belgilari:

- Muvaffaqiyatni ta'minlash;
- Faoliyatni mustaqil bajarish;
- Originallikning mavjudligi;
- Qobiliyat va iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi;
- Individual-psixologik xislat ekanligi;
- Ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi yaratuvchi imkoniyatligi.

Talant qobiliyatlar yig'indisi yoki ularning yig'indisidan iborat bo'lishiga qaramay, alohida olingan yakka qobiliyatni, hatto u taraqqiyotning yuksak bosqichiga erishgan, yorqin ifodalansa ham u bilan tenglashtirish mumkin emas.

Qobiliyatlar avvalom bor *umumiy* va *maxsus* turlarga bo'linadi va har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumiy qobiliyatlari undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o'quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi. Bunda unga umumiy bilimdonlik, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko'rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi.

Umumiy qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlarga zid tarzda talqin qilish mumkin emas. Shaxsning umumiy qobiliyatlari ularni hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqeylikdir. Maxsus qobiliyatlar ko'lam jihatdan torroq bo'lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o'zlarida mujassamlashtiradi. I.P.Pavlov o'z ta'limotida "badiiy", "fikrlovchi", "o'rta" tiplarga ajratilgan shaxslarning tavsifini beradi .

■ “Badiiy tip” uchun bevosita taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok va emotsiyalar natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi xos.

■ “Fikrlovchilar” uchun esa mavhum mantiqiy, nazariy, metodologik mulohazalarning ustunligi xos.

■ “O‘rta” tipdagilarda esa har ikkala toifa xususiyatlarining xos ekanligi ko‘rinadi.

Har bir qobiliyat o‘zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo‘lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy hayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko‘rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa - pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o‘zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalar kiradi. Xuddi shunga o‘xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Agar shaxsning ma‘lum sifatlar yig‘indisi biror vaqt ichida qo‘yilgan talablarga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga qobiliyat borligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Agar kishi xuddi shunaqa boshqa sharoitlarga uning oldiga faoliyat ro‘baru qiladigan talablarning uddasidan chiqa olmasa, unda tegishli qobiliyatlar yo‘q deb taxmin qilishga asosdir. Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko‘nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi, lekin bu xususiyatlarning o‘zlari mazkur bilim, ko‘nikma va malakalarga taalluqli bo‘lmaydi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda shunda ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan faoliyatdagina namoyon bo‘ladi. Agar kishini rasm chizishga o‘rgatishga ham urinishmayotgan bo‘lsa, agar bu faoliyat uchun hech qanday ko‘nikmani egallamagan bo‘lsa, uning rasm solish qobiliyatlari to‘g‘risida gap bo‘lishi ham mumkin emas. Faqat tasviriy san‘atga maxsus uqitish jarayonida o‘quvchida qobiliyat bor yo yo‘qligi aniqlanish mumkin. Bu uning ish usullari va rang munosabatlarini qanchalik tez va oson o‘zlashtirib olishida namoyon bo‘ladi.

Qobiliyatlar shaxsning ma‘lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan faoliyatni egallay olishini ta‘minlaydigan individual-psixologik xususiyatlar ekanki, psixologiya fani lug‘atida berilgan bu ta‘rifi B.M.Teplovning «Qobiliyat va iqtidorlik» kitobidagi tushunchalar bilan yanada to‘ldirish mumkin: Qobiliyat tushunchasida asosan uchta g‘oya mujassam, «birinchidan, qobiliyat deganda bir kishining boshqa kishidan farq etib turadigan individual-psixologik xususiyatlar tushuniladi. Ikkinchidan, qobiliyatlar deb har qanday individual xususiyatlar emas, balki biror faoliyatni yoki ko‘p faoliyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradiganlari tushuniladi. Uchinchidan, qobiliyat tushunchasi shaxsda mavjud bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni bildirmaydi».

B.M.Teplov fikriga ko'ra, qobiliyatlar doimo rivojlanmay turolmaydi. Rivojlanmagan, kishi faoliyatida qo'llanilmay qolgan qobiliyat vaqt o'tishi bilan

yo'qoladi. Ko'p va muntazam ravishda shug'ullanish orqali shaxsda murakkab faoliyat sohalariga nisbatan qobiliyatlar rivojlanadi. Masalan, musiqa, texnika, badiiy ijod, matematika, sport va hokazolar.

Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar sifatida, bir odamning boshqa odamdan farq qiladigan belgilari kabi ta'riflanadi. Qobiliyatlar shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlardir.

I.3. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida iqtidorli oʻquvchilar bilan olib borilayotgan ishlar tahlili

Zamonaviy umumiy oʻrta taʼlim maktablarida iqtidorli oʻquvchilar bilan olib borilayotgan ishlar hamda ularning zamon talablariga mosligini aniqlash maqsadida Qarshi shahridagi 14-umumiy oʻrta taʼlim maktabidan, Qamashi tumanidagi 61-umumiy oʻrta taʼlim maktabidan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlarida jami 14 nafar boshlangʻich sinf oʻqituvchilari, 466 nafar (shundan, 1-sinfdan 104 (50/54) nafar, 2-sinfdan 122 (64/58) nafar, 3-sinfdan 116 (60/56) nafar, 4-sinfdan 124 (58/66) nafar) boshlangʻich sinf oʻquvchilari ishtirok etdilar. Izlanishlar davomida boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining 18 soatlik darslari kuzatildi, taʼlimga doir yuritadigan hujjatlarini oʻrgandik, anketa-soʻrovlarini oʻtkazdik hamda oʻquvchilarda iqtidorni shakllanganlik darajasini aniqlashga doir testlardan foydalandik.

Boshlangʻis taʼlim jarayonida amalda foydalanilayotgan matematika, ona tili va oʻqish darsliklarini tahlil qilib chiqdik.

Boshlangʻich sinf oʻqish darsliklaridagi mavzuga taalluqli savol va topshiriqlar, boʻlim yuzasidan takrorlash darslari uchun berilgan savollar va topshiriqlar oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga va tafakkurini oʻqtirishga xizmat qiladi. Masalan, T.Gʻafforova, E.Shodmonov, G.Eshturdievalar tomonidan tayyorlangan 1-sinf uchun “Oʻqish kitobi” darsligi, T.Gʻafforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimovalar tomonidan tayyorlangan 2-sinf uchun “Oʻqish kitobi” darsliklaridagi savol va topshiriqlar barcha oʻquvchilarni fikrlashga va ziyraklikka undaydi. Ayniqsa, mustahkamlash darslari uchun moʻljallangan oʻquv materiallari oʻquvchilar uchun juda qiziqarli boʻlib, ular iqtidorini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-4-sinf darsliklarini oʻrganish jarayonida iqtidorli oʻquvchilar ishlashi uchun alohida oʻquv materiallari mavjud yoki mavjud emasligiga eʼtiborni qaratdik. Achinarli tomoni shundaki, deyarli barcha darsliklarda iqtidorli oʻquvchilar uchun alohida topshiriqlar toʻplami mavjud emas. Buni darsliklar hajmining chegaralanganligi bilan izohlash mumkin. Faqatgina S.Burxonov, Oʻ.Xudoyorov, Q.Norqulovalar tomonidan tayyorlangan 3-sinf “Matematika” darsligida iqtidorli oʻquvchilar ishlashlari uchun alohida topshiriqlar berilgan. Agarda boshqa darsliklarda ham qoʻshimcha ishlash uchun topshiriqlar berilsa, bu oʻquvchilarning mustaqil holda ishlashlari uchun yaxshi imkoniyat boʻlar edi. Yoki iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlash uchun barcha predmetlar boʻyicha topshiriqlar tizimini jamlagan oʻquv qoʻllanma tayyorlash va nashr qildirish maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga anketa savollari tarqatdik va olingan javoblar tahlil quyidagicha boʻldi:

“Iqtidor (qobiliyat) tugʻmami yoki faoliyat davomida orttiriladimi?” deb bergan birinchi savolimizga oʻqituvchilarning deyarli hammasi 12 nafari tugʻma boʻlishini aytishdi, qolgan 2

nafar o'qituvchi qobiliyatni tug'ma bo'lishini va faoliyat jarayonida rivojlanishini ta'kidlashdi. Bu javobdan ko'rinadiki, o'qituvchilar qobiliyatning psixologik va pedagogik asoslari haqida aniq ma'lumotga ega emaslar.

"Iqtidorli o'quvchi qanday bo'ladi, deb o'ylaysiz?" deb bergan savolimizga 6 nafar o'qituvchi aniq javob berdi va iqtidorli o'quvchilar boshqa o'quvchilardan tez fikrlashi va o'quv materialini tez o'zlashtirishi bilan ajralib turishini ta'kidladilar. 4 nafar o'qituvchi faqat bilimlarni tez o'zlashtirishini aytdilar, qolgan 4 nafar o'qituvchi noaniq javob berdi.

O'qituvchilardan o'quvchilarning iqtidorlilik belgilarini sanab berishlarini so'raganimizda, ular asosan bilimlarni tez o'zlashtirishini (14 nafar), zehnlilikni (10 nafar), zukkolikni (8 nafar), savollarga original echim topa olishni (1 nafar), qo'shimcha topshiriqlarni talab qilib olishini (3 nafar), bilim olishga bo'lgan kuchli ehtyojning mavjudligini (3 nafar) aytib o'tdilar.

"Sizningcha, bir sinfda nechtagacha yoki necha foizgacha iqtidorli o'quvchi bo'lishi mumkin?" deb so'raganimizda ular o'rtacha 10-15 foiz bo'lishini ta'kidladilar.

O'qituvchilardan o'quvchilarda iqtidorning mavjudligini aniqlash usullari haqida so'raganimizda ular asosan test (6 nafar), savol-javob (5 nafar), qiziqarli savollar va topshiriqlar (4 nafar), og'zaki hikoya (6 nafar), mantiqiy masalar (4 nafar) kabi metodlardan foydalanishlarini aytib o'tdilar.

Anketa so'rovlaridan aniqlashimizcha 14 nafar o'qituvchidan faqat 5 nafarida iqtidorli o'quvchilarga mo'ljallangan o'quv material mavjud.

Ular iqtidorli o'quvchilar bilan, asosan, dars davomida ishlashlarini, 6 nafar o'qituvchi esa darsdan tashqari vaqtda ham alohida ishlashlarini ta'kidlab o'tdilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni takomillashtirishga doir tavsiyalar berishlarini so'raganimizda, ular quyidagi fikrlarni va tavsiyalar berdilar:

1. Iqtidorli o'quvchilar uchun alohida sinflar ochish lozim.
2. Har bir darslikda iqtidorli o'quvchilar qo'shimcha ishlashlari uchun alohida material berilishi kerak.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtidorlilikni aniqlashga doir metodik qo'llanma nashr ettirish kerak.
4. Har bir maktabda iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirishga doir tadbirlari tizimi ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'quvchilarda iqtidorni shakllanganlik darajasini aniqlash uchun test savollaridan foydalandik va 16 ballik shkala bilan belgiladik. Bunda har bir o'quvchiga 5 tadan test savollari tarqatildi. Har bir to'g'ri javob uchun 2 baldan, 6 ball esa topshiriqni bajarish tezligiga ko'ra,

ya'ni 5 daqiqa davomida bajargan o'quvchiga 6 ball, 8 daqiqa davomida bajargan o'quvchiga 4 ball va 10 daqiqa davomida bajargan o'quvchiga 2 baldan qo'shimcha ball berildi. Olingan natijalar to'plangan ballarga ko'ra quyidagi mezon bo'yicha baholandi:

14-16 ball – iqtidorli o'quvchi

10-13 ball - yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi

7-9 ball – o'rta darajada o'zlashtiruvchi o'quvchi

6 ball va undan past – quyi darajada o'zlashtiruvchi o'quvchi.

Tajriba-sinov uchun tanlab olingan Qarshi shahridagi va Qamashi tumanidagi maktablarning boshlang'ich sinflarida o'quvchilarning iqtidorlilik darajalari va ular bilan olib borilayotgan ishlarning samaradorligini aniqlash uchun matematika fanidan o'tkazilgan test sinovlari natijalari quyidagicha bo'ldi:

1.3.1-jadval

Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan olib borilayotgan ishlar samaradorligi

Sinflar	Iqtidorli o'quvchilar		Yaxshi daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	A guruh	B guruh	A guruh	B guruh	A guruh	B guruh	A guruh	B guruh
1-sinf o'quvchilari	2	2	10	14	26	22	12	16
2-sinf o'quvchilari	4	4	22	20	24	24	14	10
3-sinf o'quvchilari	4	2	10	12	24	22	22	20
4-sinf o'quvchilari	4	4	22	28	24	24	8	10

Ushbu natijalarda boshlang'ich sinflarning har bir bosqichidan o'quvchilar soni, o'qitayotgan o'qituvchilarining tajribasi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari bir xil bo'lgan parallel sinflar tanlab olindi.

Tajriba-sinov natijalarining aniqlash bosqichidagi test-sinovlari natijasi foiz hisobida quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1.3.2-jadval

**Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan olib borilayotgan ishlar
samaradorligi
(foiz hisobida)**

Sinflar	Iqtidorli o'quvchilar		Yaxshi daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	A guruh	B guruh	A guruh	B guruh	A guruh	B guruh	A guruh	B guruh
1-sinf o'quvchilari	4	4	20	26	52	40	24	30
2-sinf o'quvchilari	6,3	7	34,5	35	37,5	41,4	21,7	17,5
3-sinf o'quvchilari	6,6	3,6	16	21,4	39	39,6	38	36
4-sinf o'quvchilari	6,8	6,5	38,8	42,5	40,8	36	13,6	15

Test sinovlari natijasiga ko'ra iqtidorli o'quvchilar boshlang'ich sinflarda o'rtacha 5,5 foizni tashkil etadi. Bunday natijalar hali boshlang'ich ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan olib borilayotgan ishlar talab darajasida emasligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari biz boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan suhbat o'tkazdik, ularning bajargan ishlarini kuztish asosida o'quvchilar orasidan 8 nafarida tasviriy san'atga, 14 nafarida musiqaga qiziqish va iqtidor mavjudligini aniqladik. Ulardan 3 nafari tasviriy san'at bilan, 8 nafari musiqa to'garagida muntazam shug'ullanib kelmoqda. Ammo qolgan 11 nafar o'quvchining layoqati nazardan chetda qolmoqda.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida iqtidorli o'quvchilar bilan olib borilayotgan ishlarning amaliyotdaga ahvolini bilish maqsadida olib borgan izlanishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik.

I bob bo'yicha xulosa

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashlari uchun metodik qo'llanmalar etarli emas.

2. O'quvchilarda layoqat va qobiliyatni aniqlashga doir diagnostika ishlari muntazam va rejali ravishda olib borilishi lozim.

3. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda maktab psixologlari va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hamkorlikda ishlari iqtidorni aniqlash jarayonida ham, o'quvchilar imkoniyatlariga mos o'quv materiallarini tanlashda ham yaxshi samara beradi.

4. Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida ishlash jarayoni tadqiq etish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Dissertatsiyaning keyingi boblarida ushbu muammoga doir metodika ishlab chiqishga harakat qildik.

II BOB. BOSHLANG‘ICH TA‘LIM JARAYONIDA IQTIDORLI O‘QUVCHILAR IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH ISHLARI MAZMUNI

II.1. Ta‘lim jarayonida iqtidorli o‘quvchilar bilan olib boriladigan ish usullari

Kadrlar tayyorlashda dolzarb va katta istiqbolli yo‘nalishlardan biri – maktab o‘quvchilar orasidan iste’dodli, zukko bolalarni aniqlab, ularni alohida dasturlar asosida o‘qitish, xalq xo‘jaligi uchun malakali mutaxassislar yetishtirishdir.

Intellectual mulk deb atalgan bu boylik mamlakatimiz taraqqiyoti omili, ma‘naviy va moddiy boyligidir. Asosiy boylik egasi, intellectual mulk sohibi, aql-zakovati cheksiz rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan inson esa o‘z tafakkuri bilan ijod , buyuk ixtirolar qilishga qodir bo‘ladi, insoniyat va jamiyat taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladi.

Shu sababli axloqan sof mantiqiy tafakkuri kuchli, aqliy madaniyati yuqori bo‘lgan bolalarni maxsus o‘qitish va ularga ko‘proq umid bog‘lash lozim. Aynan shunday bolalar kelgusida yanada muhimroq iqtisodiy, ilmiy va ijtimoiy masalalarni yechishga qodir bo‘ladilar.

O‘zbek avlodini jahonga ko‘z-ko‘z qilq oladigan kishilar – bu iste’dodli, qobiliyatli, zukko, o‘z ishining ko‘zini bilib bajaradigan qo‘li gul, o‘z sohasining mohir mutaxassislaridir.

Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o‘quvchilari orasidan asosli ravishda tanlashimiz va ularni layoqat yo‘nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo‘naltirishimiz kerak. Afsuski bu sifatlar bolada bo‘lmasa, uni orttirisholiy o‘quv yurtida ham, maktabda ham qiyin. Shuning uchun iste’dodlilarni tanlashda xatoga yo‘l qo‘yish shaxslarni tahqirlash hisoblanadi. Aniqlashning bir necha yo‘llari bo‘lib, eng asosiysi psixologik testlar, topshiriqlar va suhbatdir.

Iqtidorli bolalar bilan ishlash va kasb-hunarga yo‘naltirish yuzasidan tavsiyalar.

1. Maktab rahbari va maktab psixologining hamkorligini kuchaytirgan holda tuman xalq ta‘lim bo‘lim Tashxis markazi bilan bevosita ish olib borish.
2. O‘quvchilarning mustaqil fikrlashi uchun imkon berish va uning fikrini qo‘llab-quvvatlash.
3. Psixologik metodikalar orqali o‘quvchilarni tanlash va ularni fanlarga yo‘naltirish.
4. Zukko deb tan olingan o‘quvchilarni fan o‘qituvchilariga biriktirish, fan olimpiadalari, turli xil munozaralarga jalb etish.
5. Iqtidorni aniqlovchi yangi psixologik metodikalar bilan boyitish.
6. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda o‘rta-maxsus kasb-hunar ta‘limi muassalari bilan hamkorlik qilish.
7. Iqtidorli o‘quvchilarni turli xil „Umid“, „Kamolot“, „Sores“ kabi jamg‘armalar tomonidan o‘tkaziladigan musobaqalarda ishtirok etishiga yordam berish.
8. Iqtidorli o‘quvchilarni ixtisoslashgan sinflarga jalb qilish.

9. Iqtidorli o'quvchilarni iqtidorini rivojlantirishda maktab psixologi, fan o'qituvchilari va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish.

10. Ta'lim muassasalaridagi iqtidorli tarbiyalanuvchi va o'quvchi yoshlarning iqtidorini iste'dod darajasiga ko'tarishda amaliy yordam berish.

11. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning qobiliyati, iqtidori va layoqatini ilk yoshidan boshlab aniqlash va tavsiyalar berish.

12. O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda turli to'garaklar tashkil etish.

13. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha chiqarilgan har bir me'yoriy hujjatlarning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.

14. O'quvchi yoshlarning o'zlari qiziqqan soha bo'yicha bilim olishlari yurtimiz kelajagi, ravnaqi uchun muhimligini anglash va o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar ongiga singdirish.

15. Ta'lim muassasasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda chuqurlashtirilgan bilim berish yo'nalishini belgilash.

16. Ixtisoslashgan ta'lim muassasini tashkil etish uchun tashkiliy metodik bazani hamda huquqiy me'yoriy hujjatlarini tayyorlash.

17. Ixtisoslashgan maktabning nizomi ishlab chiqilib, tuman hokimiyatida tasdiqlanishi va ushbu hujjatlar asosida maktabning yo'nalishlari, o'quvchilarni qabul qilish tartibini imtihon materiallarini ishlab chiqish, qabul komissiyasini tuzish, rahbar tomonidan tasdiqlash.

Iste'dod ko'p qirralidir. Yosh bolalardagi iste'dodning ko'rinishi – bu nutqning erta paydo bo'lishi va juda ko'p bo'lgan lug'at boyligidir. Bundan tashqari iste'dodli bolalar tevarakatrofda sodir bo'layotgan voqealarga o'ta qiziquvchan bo'ladilar. Iste'dodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'lishini mutaxassislar e'tirof etganlar. Iste'dod, asosan, uch o'zaro bog'liq parametrlar bilan aniqlanadi: bilim darajasining ustunligi, psixologik rivojlanish, fiziologik sifatlar.

Bilish jarayonlari:

Ular bir vaqtning o'zida juda ko'p ishlar bilan shug'ullanadilar, ular juda qiziquvchan bo'ladilar, kuchli xotiraga egadirlar va diqqatlarni bir joyga to'play oladilar.

Psixologik rivojlanish:

Haqiqat hissi yaxshi rivojlangan, qadriyatlarning shaxsiy tizimi, xayolning o'ta rivojlanganligi, hazil hissining mavjudligi, o'zlari uchun to'g'ri kelmaydigan vazifalarni yechishga harakat qilishi, ular qo'rquv holatini oshirib yuborishlari ham mumkin, ularda egotsentrizm kuchli bo'ladi.

Fiziologik sifatlar:

Iste'dodlilarda ikki xil stereotip mavjud: biri ozg'in, kichkina, nimjon bola yoki uning aksi. Iste'dodlilar juda kam uxlashadi.

Bilish jarayonidagi rivojlanishining o'zib ketishi:

1. Idrokning kengligi, iste'dodli bolalar atrofidagi voqealarga juda sezgir va juda qiziquvchanligidir. Ular uchun dunyo nimadan tarkib topganligini bilish juda qiziqdir. Ular bir nechta jarayonni bir vaqtning o'zida kuzatishga juda qiziqishadi.

2. Ular ko'rinish va predmetlarning orasidagi aloqani kuzatish va nazorat qilishga egalar. Ular doimo o'zlarining xayollarida alternativni vujudga keltirishni sevadirlar.

3. Juda yaxshi xotira va tilning yosh vaqtdanoq rivojlanishi bolaga olamni bilishda juda qo'l keladi.

4. Iste'dodli bolalar juda katta lug'at boyligiga egadirlar, lekin o'zlari uchun yangidan-yangi so'zlarni ixtiro qiladilar.

5. Qobiliyat bilan birga mantiqiy noto'g'rilik bilan masalalar yechimini topish, idrokning yuqori darajasini saqlab qolishi, o'z ixtiyori bilan murakkab masalalarni ishlashni yoqtirishadi, ular tayyor javoblarni olishni yoqtirishmaydi.

6. Ba'zi iste'dodli bolalar matematik qobiliyatga egalar, ular hisoblashni yaxshi ko'rishadi, bunday bolalar chuqur mantiqqa ham egadirlar.

7. Iste'dodli bolalarning diqqatini to'plashi juda kuchli hisoblanadi va qat'iyatsizlik bilan masalalarni yechishga harakat qiladilar.

8. Iste'dodli bolalar masalalar bilan qiziqadilar, ular o'zlari tushunmagan masalalarni yechishga harakat qiladilar. Ular yordamga muhtoj, lekin qo'llashlarini yoqtirmaydilar.

Psixologik sezuvchanlik

1. Iste'dodlilarda haqiqatni himoya qilish hissi kuchli bo'ladi, o'zib ketayotgan axloqiy rivojlanish idrok va bilish jarayonining o'ta rivojlanganligiga yondashadi.

2. Ular adolatsizlikka qarshi chiqishadi. Ular o'zlariga va atrofdagilariga juda katta talab qo'yishadi.

3. Masalalarning yechimida ularga xayol juda qo'l keladi.

4. Ular juda katta hazil hissiga egadirlar, mos kelmaydigan tushunchalarni o'ylab topadilar, ularning hazil qilishdagi idroki tengqurlaridan ajralib turadi.

5. Ularga emotsional balans yetishmaydi, yoshlik vaqtida bunday bolalar juda sabrsizdirlar.

6. Ular ba'zan qo'rquv holatini ko'pirtirib ko'rsatadilar, ular imo-ishoralarga juda e'tibor bilan qaraydilar.

7. Iste'dodlilarda egotsentrizm yaqqol ifodalangan bo'ladi.

8. Ularda o'zini idrok qilishda negative sifatlar rivojlanadi, tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchilik vujudga keladi.

Fiziologik xarakteristika

1. Iste'dodli bolalar juda katta energetik kuchga ega, ular juda kam uxlashadi.

2. Ularning qo'l harakatlari bilish qobiliyatlaridan biroz orqada qoladi. Ularga amaliyot muhimroqdir. Intellektual va fiziologik rivojlanishdagi farqlar ularning mustaqilligini bo'g'ishi mumkin.

3. Iste'dodli bolalarning ko'rish qobiliyatlari (8 yoshgacha) o'zgaruvchandir, ularning bu qobiliyatlari pasayib ketishi mumkin.

Iste'dodli bolalar bilan ish olib borishda mutaxassislarning tavsiyalari

Iste'dodlilar bilan ishlashda Karne, Shvedal va Linnemayerlar (1982 – y.) quyidagi mezonlarni ishlab chiqdilar:

1. Har bir bola takrorlanmasdir. Ba'zilar she'r yozish, insholardan, ba'zilar matematikadagi qobiliyati bilan ajralib turadilar. Oddiy maktabda musiqaga qobiliyati bor o'quvchini ham ajrata olmasligimiz mumkin. Uchinchi bir bola esa yuqori intellekti (IQ) bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o'zini baholash mezonlari juda past bo'lishi mumkin. Shu orqali har bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonini bilishimiz lozim. Shu orqali iste'dodli bolalar bilan ishlash rejasini tuzish mumkin.

2. Iste'dodli bolalar o'zlariga nisbatan juda tanqidchandirlar. Ular o'z „men“ini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Yaqin qarindoshlarining ta'siri iste'dodli bolalar uchun juda muhimdir, ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar. Yuqori intellekt va rivojlanishning mos kelmasligi bolani ranjitishi mumkin.

3. Iste'dodli bolaning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o'rni juda kattadir. Agar oila, maktab o'zaro aloqada bo'lsa, bu eng yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

4. Iste'dodli bolalar uchun turli xil o'quv rejasini tuzish. Iste'dodli bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olib o'quv rejalari ishlab chiqilishi lozim. Ko'pgina iste'dodli o'quvchilarning qiziqishlari ko'p qirralidir.

5. Iste'dodli bolalar oddiy bolalar bilan o'qigan taqdirda ham, iste'dodli boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak.

6. Iste'dodli bolalarning dasturi har tomonlama mukammal bo'lishi zarur.

7. Iste'dodli bolalarni o'qitish uchun tuzilgan rejani shu sohadan xabardor bo'lgan rahbarning o'zi nazorat qilgan taqdirdagina samara berishi mumkin.

8. Iste'dodli bolalarni o'qitishning namunalı rejasini ish faoliyatiga bevosita tatbiq qilishi kerak.

9. Ota-ona va mutaxassislar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari muhimdir. Bu hamkorlik iste'dodli bolalarning iste'dodini rivojlantirish uchun ham muhimdir.

10. Bolaning o'ziga nisbatan bahosini bilishimiz juda muhimdir. Bola o'zining oldiga qo'ygan qanday vazifalarni bajarilayotganini ham bilishi kerak, ota-ona bundan xursandmi?

Faqat reja mavjud bo'lsa, ota-ona ham, mutaxassis ham bola o'z oldiga qo'yayotgan misollarni yechayotganligini bilishi mumkin.

11. Namunali dastur yaxshi rejalashtirilgan, effektiv va doimiy faoliyatdagi sistemani ko'rsatishi kerak va bunda ota-onaning o'rnini ham ta'kidlab o'tishimiz zarur.

12. Dasturning optimal jihatlarini ko'rishi kerak, bola bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishini ta'minlashi kerak.

13. Dastur qat'iyatlilik va maqsadga intilishni rivojlantirish kerak. Yuqori bo'lishi juda katta ahamiyatga ega emas. Maqsadga intilish va boshlagan ishini oxirigacha yetkazishi muhimdir.

14. Dasturning asosiy maqsadlaridan biri ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdir.

15. Iste'dodli bolalar bilan ishlashda talantli tarbiyachi, o'qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar maktabga ham, ota-onalarga ham juda zarurdir.

Iste'dodli bolalarning muammolari

Leta Xollinguort intellektual jihatdan iste'dodlarning moslashuvini o'rganib chiqib, bu muammoga o'zining katta hissasini qo'shdi. Ota-ona va pedagoglar iste'dodli bolalar bilan ishlayotganda quyidagi muammolarga o'z e'tiborlarini qaratishi lozim:

1. Maktabni yoqtirmaslik. Bunday holat iste'dodli bola uchun asosan maktab dasturi zerikarli va qiziq bo'lmagan holatda sodir bo'ladi. Iste'dodli bolalarning fe'lidagi o'zgarishlar ularning qobiliyatiga dastur moslanmasligi uchun sodir bo'ladi.

2. O'yin holatiga bo'lgan qiziqishlar. Iste'dodli bolalarga murakkab o'yinlar juda yoqadi va ularga hamma tengdoshlarini qiziqtiradigan o'yinlar zerikarli tuyuladi. Shu sababdan iste'dodli bola yakkalanib qoladi.

3. Konformlilik. Iste'dodli bolalar standart talablarni inkor qiladi, agar standartlar uning uchun to'g'ri kelmasa, ma'nosizdek tuyuladi.

4. Falsafiy muammolarga o'ralashib qolish. Iste'dodli bolalar ko'oincha o'lim haqida, qabrdagi hayot, diniy ishonch va falsafiy muammolar haqida ko'p boshlarini qotiradilar.

5. Fiziologik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishning bir-biriga mos kelmasligi. Iste'dodli bolalar o'zlaridan katta bo'lgan bolalar bilan muloqot qilishni va o'ynashni yoqtirishadi. Shuning uchun ham ular sardor bo'lishga qiynalishadi, chunki ularda fiziologik o'sish kechroq bo'ladi.

Bu ro'yxat boshqa tadqiqotchi Uitmor (1980 – y.) tomonidan to'ldirilgan:

1. Mukammallikka intilish. Iste'dodli bolalar uchun ichki mukammallik ehtiyoji muhimdir. Ular yuqori bosqichga chiqmagunlaricha to'xtamaydilar. Bu ko'rinish juda erta namoyon bo'ladi.

2. Qoniqmaslik hissining mavjudligi. O'ziga bo'lgan bunday munosabat mukammallikka intilish hissi bilan o'zaro bog'liqdir. Ular o'zlarining yutuqlariga tanqidiy nazar bilan qarashadi, ko'pgina hollarda qaramaydilar, shuning uchun ham past o'zini baholash vujudga keladi.

3. Real bo'lmagan maqsadlar. Iste'dodli bolalar ko'p hollarda o'zlarining oldiga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Ularni bajarish imkoniyati bo'lmagach, ular xavotirga tusha boshlaydilar. Boshqa tomondan bu yuqori ko'rsatkichlarga intilishga undovchi kuchdir.

4. O'ta sezuvchanlik. Iste'dodli bolalar tashqi muhit ta'sirlarini yaxshi sezganlari uchun tashqaridan bo'ladigan tanqidga juda katta ahamiyat beradilar. Iste'dodli bolalarning ko'ngillari juda nozikdir, ular ko'pincha noverball holatlarni o'zlari uchun deb tushunadilar.

5. Kattalar e'tiborini tortishga intilish. Tabiat ato etgan dunyoqarashi va bilishga intilish jarayonida iste'dodli bolalar o'qituvchi, ota-ona va boshqa katta insonlarning e'tiboriga muhtoj bo'lib qoladilar. Bu boshqa bolalarning jahllari chiqishiga olib keladi.

6. Sabrsizlik. Iste'dodli bolalar o'zlaridan past bo'lgan intellektda turadigan bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'lishadi. Ular atrofdagilarning munosabatlarini va tanqidlarini inkor etadilar, ular bunga nafrat yoki sabrsizlik bilan javob berishadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari iqtidorini o'stirish uchun matematika darslarini quydagicha tashkil etish mumkin:

Mavzu: Yettini ko'paytirish va yettiga bo'lish (sayohat darsi).

Darsning maqsadi:

1) O'quvchilarning ko'paytirish va bo'lish yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash, misol va masalalar yechish malakasini hosil qilish.

2) O'quvchilarda erkin va mustaqil fikrlashni shakllantirish, ularda hamkorlik va jamoa bo'lib ishlash maqsadiga erishish ruhida tarbiyalash. O'quvchilarga ogohlik, hushyorlik, vatanni asrash hislatlarini shakllantirish.

3) O'quvchilarning kundalik hayoti va amaliy faoliyatida egallagan bilimlarini qo'llay olish malakasini, qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning shakli: Noan'anaviy. Sayohat darsi.

Darsning turi: Yangi bilim beruvchi

Kutilayotgan natija. O'quvchilar yettini ko'paytirish va yettiga bo'lishni to'liq o'zlashtiradilar.

Darsning jihozi: Raqamli kartochkalar, mavzuga doir misol va masalalar yozilgan hamda dars ishlanmasi yozilgan disketa, kompyuter, multimedia, 2-sinf matematika darsligi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

1. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi.
2. Sinf xonasi tozaligi, o'quvchilar davomati.

II. Asosiy qism.

Darsga semurg' qushi kirib keladi:

-Assalomu-alaykum bolajonlar!

-Men semurg' qushi bo'laman, sizlarga ajoyib ertak aytib beraman.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan qadim o'tgan zamonda ariqda sharbat, soyda sut oqqanda, buloqda qaymoq, hovuzda nisholda bo'lganda, tuya yong'oq yutib, tovuq oltin tuxum tuqqanda baxt vodiysi ortida baland tog'lar bag'rida ulkan qasr joylashgan bo'lib, uning devoridan hatto qushlar ham uchib o'ta olmas ekan. Bu qasr butun dunyoga nur-u ziyo taratib, hamma qushlarni o'ziga rom qilar ekan.

Yetti o'quvchi chiqadilar. O'quvchilar har birida bitta qush rasmi tasvirlangan plakatni taqib, gaplashadilar.

- Qani do'stlar, hammamiz ahil, inoq bo'lib baxt vodiysidan o'tib, "Matematika qasri"ga borib xizmat qilamiz. Ilm hisob-kitob ishlaridan xabardor bo'lamiz deyishibdi.

Ular uzoq juda ham uzoq parvoz etib "Baxt" vodiysiga etib kelishibdi. Ular bu yerda dam olib, charchog'ini chiqarib yana safarga o'tlanmoqchi bo'lib turganlarida "Baxt vodiysi" malikasi paydo bo'lib, ularning ezgu niyatlaridan xabardor bo'lib, shunday savol tashlabdi:

Sizlar yettovlon do'st ekansizlar! Do'st-do'stning tayanchi deyдилar. Qani, yetti to'g'risida nimalarni bilasiz? So'zlab beringchi?

Qushlar birin-ketin javob bera boshladilar:

Xumo: Men dunyoning yetti mo'jizasini bilaman.

Kabutar: Yetti xazina.

Boyqush: To'rtga uchni qo'shsak yetti bo'ladi.

Burgut: O'ndan uchni ayirsak yetti qoladi.

Hudhud: Yetti-yettita birlikdan iborat.

Lochin: Yetti iqlim.

Qaldirg'och: Yetti karra yetti qirq to'qqiz.

Barakalla sizlar, bilag'on ekansiz! Sizga omad yor bo'lsin!-deb malika matematika qasriga yo'l ko'rsatibdi. Qushlar bir-biriga do'stona, xayrihohlik bilan uzoq, mashaqqatli davonlardan o'tib, matematika qasriga yetib kelishibdi. Ammo qasrga qancha urinishsa ham kira olisholmabdi.

Qasrda ikkita birin-ketin darvozalar bo'lib, bu darvozalar "Ko'paytirish" va "Bo'lish" deb nomlanar edi.

Kabutar:

Elchi bo'lib keldim, men.

Tinchlik kabutariman,

Ogoh bo'lish burchingiz,

Darvozingiz ochingiz.

Posbonlar bu so'zlarni tinglab. "Ogohlik, ziyraklik, hushyorlik burchimizdir!",-deb quyidagicha shart qo'yishibdi:O'qituvchi multimedia va kompyuterdan foydalanib, misollarni ekranga chiqaradi. O'quvchilar og'zaki javob beradilar.

$$7 \times 5 = \quad 7 \times 6 = \quad 56 : 8 = \quad 7 \times 8 = \quad 8 \times 7 = \quad 63 : 7 =$$

$$7 \times 9 = \quad 9 \times 7 = \quad 28 : 7 =$$

Meni derlar Qaldirg'och.

Darvozingiz tezda och,

Tilakdoshman do'stlikka,

Xayrihohman bilimga.

Posbonlar ushbu masalani yechsangiz, sizlar uchun "Ko'paytirish" darvozasi ochiq:

O'qituvchi kompyuter multimedia orqali ekranga 1101-masalani yozib chiqaradi.

1101-masala. Ifodalarni yozing va qiymatlarini hisoblang:

1. Birinchi qo'shiluvchi 57, ikkinchi 4 bilan 9 ning ko'paytmasi.
2. Bo'linuvchi 27, bo'luvchi 40 va 31 sonlarining ayirmasi bilan ifodalangan.
3. Kamayuvchi 85, ayriluvchi 10 va 3 sonlarining ko'paytmasi bilan ifodalangan.

O'quvchilar daftarga hisoblaydilar. O'qituvchi ularning harakatlarini nazorat qilib boradi. Masala yechilgach:

Qushlar "Bo'lish" darvozasiga yaqinlashadilar.

Burgut so'zlaydi:

Yuksaklarga parvozim,

Yaxshi niyat hamrohim,

Hushyor bo'lingiz doim.

Darvozing och posbonim.

Posbon: “Vatanning har bir qarich yerini asrab-avaylash burchimizdir!”,-deb o‘z shartini qo‘yadi: **1102-masala**. Rasm va jadval bo‘yicha masala tuzing va yeching.

O‘quvchilar o‘z fikrlari orqali masalalar tuzib, uni yechadilar:

Xaridor do‘kondan uchta paketda jami 9 kg un xarid qildi. U 7 ta paketda un xarid qilsa, necha kilogramm un xarid qilgan bo‘ladi?

et sasi	Pak mas	ar Paketl soni	Hamma paketlar massasi
xil	Bir	3 ta 7 ta	9 kg ?

Xumo:

Tarqataman nur-u ziyoni,

Qo‘riqlayman yer-u samoni.

Hozir hisob-kitob zamoni,

Hushyor turgin davrim posboni.

Pospon darvozani ochadi: Agar siz ushbu test savollarini yechsangiz, “Matematika qasri” darvozasi siz uchun ochiqdir:

1) $8 \cdot 7 - 56 =$ A)1 B)0 C) 55

2) $90 - 9 \cdot 7 =$ A)13 B)71 C) 17

3) $65 + 49 : 7 =$ A)72 B)71 C)70

4) $11 - 63 : 7 =$ A)0 B)2 C)1

Aziz bolajonlar! Mana “Matematika” qasriga ham kirib oldik endi, haqiqiy hisob ilmi bilan shug‘ullanamiz.

O‘quvchilarga har xil ko‘rinishdagi kartochkalar tarqatiladi.

(Kartochkalardan namunalar keltiramiz).

1-kartochka Taqqoslang	
$7+7+7$	$4 \cdot 5$
$7 \cdot 5 - 1$	$7 \cdot 4$
$(10-3) \cdot 7$	$7 \cdot 7$

2-kartochka Taqqoslang	
$2 \cdot 7 + 3 \cdot 7$	
$7+7+7+7+7$	
$7 \cdot (6-3)$	$7 \cdot 3$
$6 \cdot (10-3)$	$7 \cdot 5 + 6$

3-kartochka Hisoblang	
1)	$7 \cdot 7 - 34 =$
2)	$8 \cdot 7 - 28 =$
3)	$7 \cdot 9 - 54 =$

4-kartochka Hisoblang	
1)	$49:7 \cdot 8 =$
2)	$63:9 \cdot 6 =$
3)	$56:8 \cdot 4 =$

Mustahkamlash.

Darslikdan 1100-misol yechiladi.

Aziz bolajonlar! Bilasizmi, o‘zbek tiliga asos solgan, ya’ni o‘zbek tilida birinchi bo‘lib she’r va hikoyalar yozgan shoir kim?

O‘quvchilar: Alisher Navoiy.

Biz hozirgi darsimizda Alisher Navoiyning mashhur “Qush tili” ya’ni “Lison-ut tayr” kitobidan foydalandik.

III. Yakuniy qism.

1.Darsga faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

2.Uyga vazifa 1106-1107-misol.

II.2. Sinfдан tashqari mashg'ulotlar – o'quvchilar qobiliyatini o'stirishning muhim tashkiliy shakli sifatida

Darsdan tashqari mashg'ulotlar iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash uchun qulay ta'lim shakli bo'lib, bunday mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning qiziqishlari va imkoniyatlariga ko'ra individual ishlash imkoniyati mavjuddir.

Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarda mavjud bo'lgan iqtidor va qiziqishlar o'rganilgach quyidagi shakllarda olib borilishi mumkin:

1. Fan to'garaklari
2. Yakka mashg'ulotlar.
3. Intellektual tanlovlar
4. Viktorinalar

Bunday tadbirlar o'quvchilarning qiziqishlari, xohishlariga ko'ra va qobiliyatlari aniqlanib tashkil etiladi.

Matematika faniga qiziqishi va iqtidori kuchli bo'lgan o'quvchilar bilan "Kichik bilimdonlar" to'garagini, ona tili va adabiyotga qiziquvchilar uchun "Yosh adiblar" yoki "Kichik suxandonlar" to'garaklarini tashkil etish mumkin.

Bunday to'garaklarda olib boriladigan ishlar quyidagi tamoyillar asosida tashkil etilishi lozim:

1. *Muntazamlilik tamoyili.* O'quv mashg'ulotlari o'quvchilar imkoniyatlarini inobatga olgan holda doimiy ravishda takshil etilishi kerak.

2. *Izchillik va uzluksizlik tamoyili.* Ya'ni mashg'ulotlarda o'quvchilarga beriladigan o'quv materiallari oddiydan murakkabga, soddadan qiyinga tomon rivojlantirib borilishi hamda uzluksiz ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

3. *O'quv materiallarining o'quvchilar yosh xususiyatlari va qobiliyatlariga mosligi tamoyili.* To'garaklarga o'quvchilar iqtidorlari inobatga olgan holda jalb etilishi va to'garaklardagi o'quv materiallari ularning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

4. *Dars va darsdan tashqari o'quv mashg'ulotlari materiallarining bog'liqligi tamoyili.* O'qituvchi iqtidorli o'quvchilar bilan darsdan tashqari mashg'ulotlar davomida ishlar ekan, dars davomida o'zlashtirilgan ma'lumotlarga bog'liq holda ishlash ular tafakkurini o'qtirishga, ayni bir mavzuga taalluqli qo'shimcha ma'lumotlarni ham o'zlashtirishga yordam beradi.

5. *Rivojlantirish tamoyili.* Darsdan tashqari mashg'ulotlar iqtidorli o'quvchilarning qiziqishlarini qondirishga va tafakkurlarini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Ammo bunday qo'shimcha mashg'ulotlar ularni zeriktirmasligi, charchatib qo'ymasligi va o'zlariga bo'lgan ishonchni yo'qotmasliklariga yordam berishi lozim.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma-xil ta'lim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqlarini yo'lga qo'yish formalaridan biridir.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga hamda faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi va ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur muammoni ijobiy hal etish uchun sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo'lishi lozim:

- pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro xurmat munosabatlarini shakllanganlikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish;
- ulg'ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, ijtimoiy huquqini e'tiborda tutish zarur.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- a) fan to'garaklari;
- b) kasb-hunar to'garaklari;
- c) sport to'garagi;
- d) badiiy xavaskorlik to'garagi.

O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni o'qituvchi va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi uyushtiradi. Sinf rahbari to'garak rahbarlariga yaqindan yordam beradi. Qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularni dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga? Iqtidorini rivojlantirishga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;
- o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;

– sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;

– umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

– o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish;

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan olib borilgan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchi quyidagi bir qator ishlarni amalga oshirishi lozim:

– iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;

– o'quvchilar iqtidori shakllanganlik darajasini aniqlash;

– darsdan tashqari mashg'ulotlar va tadbirlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;

– sinfdan tashqari tadbirlar natijasida o'quvchilarda intellektual o'sishni diagnostika qilish.

Maktabda iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarni aniq rejalashtirmasdan, uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan maqsadga erishish qiyin.

Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishiga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferensiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechalari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Og'zaki ish usullari. Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, maruzalar, kitobxonlar konferensiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og'zaki gazetalar, radiojurnallar.

2. Amaliy ish olib borish usullari: turli joylarga sayohatlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar to'garaklari.

3. Ko'rgazmali ish usullari. Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Boshlang'ich sinf matematika fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlarda quyidagi misollardan foydalanish mumkin:

O'quvchilar mustaqil shug'ullanishlari uchun.

(II chorak yakuni uchun)

1. Ustun usulida yozib, hisoblang.

$$9378 : 3 \quad 9513 : 9 \quad 25075 : 5 \quad 795720 : 8$$

$$7686 : 7 \quad 6112 : 8 \quad 76904 : 4 \quad 204618 : 6$$

2. Qoldiqli bo'lishni bajaring va tekshiring.

$$95 : 40 \quad 56 : 4 \quad 100 : 15 \quad 80 : 9$$

$$68 : 13 \quad 28 : 5 \quad 188 : 90 \quad 39 : 11$$

3. Ifodaning qiymatlarini toping.

1) $a = 65714$ $b = 13909$ bo'lsa, $a + b$ va $a - b$

2) $c = 495543$ $d = 267898$ bo'lsa, $c + d$ va $c - d$ bo'lgandagi qiymatlarini toping.

4. Tenglamalarni yeching.

$$1608 - x \cdot 8 = 600 \quad 2000 - x \cdot 6 = 1394$$

$$X : 7 + 360 = 700 \quad 900 - (x + 160) = 75$$

$$(75 + x) + 150 = 400 \quad (1902 - x) - 608 = 500$$

5. Ifodalang.

$$6 \text{ sutka } 21 \text{ soat} = \quad \text{soat} \quad 16 \text{ sr } 15 \text{ kg} \cdot 7 =$$

$$4 \text{ asr } 99 \text{ yil} = \quad \text{yil} \quad 3 \text{ t } 064 \text{ kg} \cdot 5 =$$

10 asr 100 yil 12 oy = yil

4000 sm = m

6 t 1000 kg = t

6. Masalalarni yeching.

1 - masala

Mashina 5 soatda 400 km masofani bosib o'tdi. Agar mashina tezligini 8 km/ soatga oshirsa, u shu vaqt ichida qancha masofani bosib otadi ?

2 – masala

2000 kg shakar 6 kg va 8 kg li xaltachalarga joylandai. 6kg li xaltalar soni 260 ta . 8 kg li xaltalar soni nechta ?

3 - masala

Poyezd 800 km yo'lni o'tishi kerak edi. U 319 km yo'lni o'tdi. Poyezd yana o'tganidan necha kilometr ko'p yo'lni o'tishi kerak?

4 – masala

Kutubxonaga kitoblar keltirildi.Kutubxonachi 6 ta tokchaga 42 tadan kitob qo'yganidan keyin yana 68 ta kitob qoldi.Kutubxonaga nechta kitob keltirildi?

5 – masala

Qandolat fabrikasida 84 xil mahsulot ishlab chiqariladi. Ularning yettidan bir qismi eksport qilinadi. Necha xil mahsulot eksport qilinadi ?

Matematika fanidan 4-sinf o'quvchilari uchun misollar.

(III chorak yakunida o'quvchilar mustaqil shug'ullanishlari uchun)

1.Ko'paytirishni ustun usulida bajaring.

214 · 36 315 · 60 40170 · 30

190 · 48 123 · 84 16600 · 50

2.Bo'lishni ustun usulida bajaring.

425025 : 25 405000 : 90 195000 : 78

14007 : 69 10000 : 80 106500 : 71

4264 : 26 10125 : 45

37800 : 120 15048 : 33

3. Tenglamani yeching.

57105 : X = 135 345 – (X – 267) = 17

20000 – X = 9922 25 · X = 157500 : 105

X – 71024 = 53011 17 · X - 45 = 480 : 12

4. Yuz o'lchov birliklarida ifodalang.

2880 sm² = dm² sm²

$$3300 \text{ dm}^2 = \quad \text{m}^2$$

$$90000 \text{ sm}^2 = \quad \text{m}^2$$

$$6\,000\,000 \text{ m}^2 = \quad \text{km}^2$$

$$5 \text{ km}^2 \ 15 \text{ m}^2 = \quad \text{m}^2$$

$$8 \text{ dm}^2 \ 600 \text{ mm}^2 = \quad \text{sm}^2$$

$$70 \text{ dm}^2 \ 90 \text{ sm}^2 = \quad \text{mm}^2$$

$$300 \text{ dm}^2 \ 30\,000 \text{ sm}^2 = \quad \text{m}^2$$

5. Sonlarni raqamlar bilan yozing.

1) o‘n to‘rt million olti yuz sakson ming besh yuz yetmish ;

2) sakkiz yuz ellik olti ming ikki yuz uch ;

3) to‘qqiz million yetti yuz ming to‘rt yuz sakson sakkiz ;

4) 30 mln 532 ming 4 yuz ;

5) 563 ming 7 ;

6) 448 mln 5 yuz 75 ;

6. 0, 1, 2, 3 raqamlari yordamida barcha to‘rt xonali sonlarni yozing. Eng katta to‘rt xonali va eng kichik to‘rt xonali sonlarni tagiga chizing.

7. Masalalarni yeching.

1-masala.

Fermer umumiy massasi 2100 kg bo‘lgan ikkita bir xil sigir va to‘rtta bir xil novvos sotdi. Bitta sigirning massasi 280 kg . Bitta novvosning massasi qancha?

2-masala.

Tomonlaridan biri 8 sm^2 va yuzi 64 sm^2 bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizing va uning perimetrini toping .

3-masala.

Ikkita avtomobil bir xil tezlik bilan harakat qildi va biri 8 soat , ikkinchisi 5 soat yo‘lda bo‘ldi. Agar birinchi avtomobil ikkinchisidan 210 km ortiq yo‘l yurgan bo‘lsa, har bir avtomobil necha kilometr yo‘l yurganini toping.

4-masala.

Uchburchakning bir tomoni 34 sm, ikkinchi tomoni 48 sm , uchinchi tomoni esa ikkinchi tomonidan 23 sm qisqa. Uchburchakning perimetrini hisoblang.

Suningdek, kichik maktab yoshidagi iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashda **matematik topishmoqlardan** ham foydalanish mumkin:

-Kunlarni men sanayman,

Haftalarni jamlayman.

So‘ng oy, yil, varag‘in,

Hisoblab yakunlayman.
Oriqlayman kundan –kun,
Oxir tugayman butgul.

Topishmoq javobi – taqvim.

She'riy masala.

Bobo va nabira

- Necha yoshdasiz, bobo?

O‘ylanib turib bir zum

Bobo boshlaydi so‘zin:

- Katta bo‘p qolding, qo‘zim

Hisoblab ko‘rchi, o‘zing

Sen va akang yoshidan

To‘rttasin yashab bo‘ldim,

Endi o‘ylab boq bir oz

Men necha yoshga to‘ldim?

- Akam kirdi o‘n birga,

Men esa to‘qqiz yoshda

O‘ylab ko‘raychi, picha

Bobomning yoshi necha?

Matematik diktantlar ham o‘quvchilarni og‘zaki hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o‘qituvchi misollarni og‘zaki aytib turadi. O‘quvchilar matematik misollar tarzida yozadilar va javobini topadilar. Masalan:

1-misol. *36 bilan 28 sonlarining yig‘indisini toping*

2-misol. *41 bilan 19 sonlarining ayirmasini toping.*

3-misol. *24 va 3 sonlarining ko‘paytmasini toping*

4-misol. *91 va 7 sonlarining bo‘linmasini toping.*

O‘quvchilar ushbu diktantni daftarlariga quyidagi ko‘rinishda yozadilar:

1-misol. $36+28=64$

2-misol. $41-19=22$

3-misol. $24 \times 3=72$

4-misol. $91:7=13$

Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish, iqtidorli o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida qator mustaqil ish turlaridan foydalanish mumkin. Masalan, quyidagi mavzularda **hikoyalar tuzish topshirig‘ini** berish mumkin:

1. Oilamizda dam olish kuni.

2. Mening bir kunim.
3. Maktabdan uygacha.
4. Dunyoda nima go'zal?

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurini o'stirish nostandart holatlar bo'yicha hikoyalar tuzish topshirig'ini berish ham mumkin. Masalan, uylarida boqadigan uy hayvonlari nomidan hikoya tuzish topshirig'i o'quvchilarda fantaziyani, nutqni, kuzatuvchanlik va ziyraklik xislatlarini o'stirish bilan birgalikda ekologik tarbiya berishga ham yordam beradi. Ular quyidagi mavzularda bo'lishi mumkin:

1. Mening itim Olapar nima deydi?
2. Qo'ylar nima haqida o'ylaydi?
3. Tovuqlar va jo'jalarim.
4. Agar daraxtlarning tili bo'lganida...

Quyida o'quvchilar tomonidan tuzilgan ana shunday hikoyalardan namuna keltiramiz:

3-sinf o'quvchisi Jabborova Umida o'zi boqadigan iti haqida quyidagicha hikoya tuzdi:

Men boqayotgan it – Leksi

Meni otim Leksi. Meni Umida ismli qizcha boqadi. U meni juda yaxshi ko'radi, doim ovqatlantiradi. Ammo ko'chaga aylantirgani olib chiqmaydi. Chunki men juda kattaman. Agar men o'ynamoqchi bo'lsam, boshqa bolalar mendan qo'rqib qochib ketadi.

Bir kuni men mazasini ko'rmoqchi bo'lib, Umidani shippagini chaynab ko'rdim va yirtib qo'ydim. Umida xafa bo'ldi, meni urishdi, ammo urmadi.

Kechqurunlari zeriksam qo'shiq aytaman, mushuklarni ko'rsam qattiq vovullayman. Kunduzi Umida bilan koptok o'ynaymiz. Men uni juda yaxshi ko'raman.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarga bunday topshiriqlar berish ularni ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, ular orasidan faol va qiziquvchan, qobiliyatli o'quvchilarni tanlab olishga ham yordam beradi.

II bob bo'yicha xulosa

1. Boshlang'ich ta'lim jarayonidanoq o'quvchilar orasidan turli fan sohalariga qiziqishlari yuqori bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlarni samarali tashkil etish boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan alohida psixologik va pedagogik tayyorgarlikni talab etadi.

2. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ham dars mashg'ulotlari davomida iqtidorli o'quvchilar zerikib qolmasliklari va ular qobiliyatlarini yanada o'stirish uchun har bir mavzuga doir topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi boshlang'ich sinf o'qituvchisi ishini yengillashtiradi va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

3. Sinfдан tashqari mashg'ulotlar – fan to'garaklari, intellektual tanlovlar iqtidorli o'quvchilar qobiliyatlarini namoyon etishning muhim shakli, shuningdek ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga ham yordam beradi.

III BOB. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN OLIB BORILADIGAN ISHLAR SAMARADORLIGI

III.1. O'quvchilarning iqtidorlilik darajalarini aniqlash metodikasi

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

Qobiliyatlarni o'lchash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash - qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lchashning ishonchli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Rus olimi E.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - hunar sohalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so'rovnoma» deb atadi. Shunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

P(T) - tabiat (o'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T - texnika (mashina, materiallar, energiya turlari);

Ch(O)- odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli ma'lumotlar, belgilar, simvollar);

X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

Bolaning qobiliyat yo'nalishlari darajasini aniqlash usullari quyidagilardan iborat:

	1- bosqich (1-4 – sinf)
1	Kuzatish jarayonida
2	Suhbat jarayoni orqali qiziqishlarini o'rganish
3	Ota-onasi, bolaning o'zi bilan suhbatlashish

4	Diqqat xotirasini tekshirish, testlar
5	Tadbirlar (KVN,konsertlar, kechalar, bayramlar)
6	Dars jarayonida
7	Musobaqalarda
8	Kichik fan olimpiadalari
9	Ekskursiya uchrashuvlarida

Iqtidorli bolalarni aniqlash testlari

Umumiy bilimdonlikni aniqlash testi

Sizga ikkita soʻz berilgan, shu ikki soʻz uchun umumiy boʻlgan soʻzni toping.

Masalan, „Bugʻdoy – arpa “ boʻlsa, umumiy soʻz „Donli oʻsimliklar“ boʻladi.

1. Osiyo – Afrika –
2. Botanika – Zoologiya —
3. Feodalizm – kapitalizm –
4. Ertak – rivoyat —
5. Suyuqlik – gaz—
6. Yurak – arteriya—
7. Kopengagen – Managua—
8. Atom – molekula—
9. Yogʻlar – oqsillar—
10. Fan – sanʼat—
11. Amper – volt—
12. Kanal – toʻgʻon—
13. Yigʻindi – koʻpaytma—
14. Toʻfon – Zilzila—
15. Klassika – reallik—

Javoblar kaliti: 1. Qitʼa; 2. Biologiya; 3. Ijtimoiy tuzum; 4.Xalq ogʻzaki ijodi;

5.Moddaning agregat holati; 6. Qon aylanish tizimi; 7. Poytaxt; 8. Moddaning kichik organlari; 9. Organik modda; 10. Madaniyat; 11. Elektr oʻlchov birligi; 12. Sunʼiy suv inshooti; 13. Matematik harakat; 14. Tabiiy ofat; 15. Sanʼat yoʻnalishi.

Javoblar izohi: har bir toʻgʻri javob uchun – 1 ball.

0 – 5 – past

6 – 10 – oʻrta

11—15 – yuqori bilimdonlik darajasiga ega.

Matematik qobiliyatni aniqlash testi

Sizga bir qator sonlar berilgan. Ular qonuniyatlari orqali joylashgan. Sizning vazifangiz esa har qatorning keyingi sonini topishingiz lozim (10 daqiqa ichida). Har bir qator matematik amallar qo'llanilgan holda tuzilgan. Masalan, 2,4,6,8,10, keyingisi 12, chunki har safar 2 ga ko'paygan yoki 9,7,10,8,11,9,12. Bu yerda 2 ga ko'payib 3 ga olinganligi uchun keyingi son 10 bo'ladi.

Kalit

1. 6, 9, 12, 15, 18, 21?	1-24	6-24
2. 9, 1, 7, 1, 5, 1?	2-3	7-18
3. 2, 3, 5, 6, 8, 9?	3-1	18-64
4. 10, 12, 9, 11, 8, 10?	4-7	9-37
5. 1, 3, 6, 8, 16, 18?	5-36	10-49
6. 3, 4, 6, 9, 13, 18 ?		
7. 15, 13, 16, 12, 17, 11?		
8. 1, 2, 4, 8, 16, 32?		
9. 1, 2, 5, 20, 17, 26?		
10. 1, 9, 16, 25, 36?		

Shaxsning til o'rganishga nisbatan qobiliyatini aniqlash

Quyidagi so'zlardan foydalanib, gaplarni shu tilga tarjima qiling. Sizga 10 daqiqa vaqt.

So'zlar:

U – va

Ter – ota

Term – otamnikiga

Nafe – aka

Nate – uka

Niixa – bormoq, mehmon bo'lmoq

Beg – sevmok, yaxshi ko'rmoq

Em – mening, meniki

Ru – men

Du – sen

X – inkor ma'nosi

Gaplar:

1. Sen otamnikiga bording.
2. Men seni sevaman.

3. Sen menikiga kelding.
4. Men otamnikiga bordim.
5. Men otamni sevaman.
6. Otam ukamnikiga bordi.
7. Otam seni sevadi.
8. Men seni sevmayman.
9. Otam menikiga kelmaydi.
10. Otam va men senikiga bordik.

To'g'ri javoblar:

1. De term nixa
2. Ru de beg.
3. De yem nixa
4. Ru term nixa
5. Ru ter beg.
6. Ter natem nixa
7. Ter de beg.
8. Ru de beg.
9. Ter yem nixax.
10. Ter u ru dem nixa.

Izoh; 10 daqiqa orasida qancha gap tarjima qilinsa, ball shuncha yuqori bo'ladi.
Maksimal ball – 10 ball.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash darajalarini, dunyoqarashlari kengligini, tafakkur yurita olish tezligini va iqtidorini aniqlash maqsadida quyidagi "O'yin-topishmoq"dan (G'afforova T., Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o'yinlar. Qarshi: Nasaf. – 2003.) ham foydalanish mumkin:

Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga javobi bir xil bo'lgan 3 ta topishmoq yoki ta'rif bilan murojaat qiladi. O'quvchilar javob varaqalariga «1-savol» deb yozadilar. Pastidan esa «1-javob», «2-javob», «3-javob» deb yozadilar va har bir topishmoq (ta'rif) o'qilgach, javoblarni javob varaqalariga qayd qiladilar. Birinchi topishmoq (ta'rif) xiyla murakkab, ikkinchi topishmoq (ta'rif) osonroq, uchinchi topishmoq (ta'rif) esa juda oson bo'ladi. Mustaqil fikrlay oladigan ziyrak o'quvchilar birinchi topishmoqdanoq to'g'ri javobni topa oladilar va natijada uchta javobning ham bir xilligiga iqror bo'ladilar. Bu me'yor ancha real natijalarni olishga imkon yaratish bilan birgalikda ball belgilashda ham qulayliklar tug'diradi. Ya'ni birinchi topishmoq (ta'rif)danoq to'g'ri javob topilsa 3 ball, ikkinchi topishmoq (ta'rif)dan to'g'ri javob

topilsa 2 ball va nihoyat uchinchi urinishdagina to'g'ri javob topilsa 1 ball beriladi. Agar umuman to'g'ri javob topilmasa 0 ball.

1-savol:

1-ta'rif: U qishda ham uxlamaydi, yashnayveradi.

2-ta'rif: Ko'k nimchasin echmas hech,

Yoz bo'lsa ham kechmas hech.

Dersiz, qishda qaqshar u,

Ayni qishda yashnar u.

3-ta'rif: Yilda bir bor mehmon bo'lar

Yashil sochli opamiz.

Uy to'riga o'tkazib,

Taqinchoqlar taqamiz.

2-savol:

1-ta'rif: Kichkina dono,

Ichi to'la ma'no.

2-ta'rif: Ilmga kon,

Mazmunga makon,

So'zi serhikmat,

Bizga do'st, ulfat,

O'rgatar odob,

Bu nima, Ozod?

3-ta'rif: Qat-qat qatlama,

Aqling bo'lsa tashlama.

3-savol:

1-ta'rif: U tabiat hodisasi. Qariyalarning soch-soqoliga ham «tushibdi» deyishadi.

2-ta'rif: Sovug'i bor

Emas qor.

Oppoq, hech kim –

Demas qor.

3-ta'rif: Sovuq kunlari hamma joyni qoplaydi-yu, havo sal ilishi bilan erib ketadi.

4-savol:

1-ta'rif: Aytishlaricha, u shunaqa oqko'ngil ekanki, mabodo biror kishini chaqib xafa qilib qo'ysa, o'zi ham halok bo'lar emish.

2-ta'rif: U hasharotning nomida shirinlik nomi qatnashadi.

3-ta'rif: Guldan-gulga qo'nar u,

Sharbat yig'ib jo'nar u,
Yig'ib o'zi yemaydi,
Uyasiga to'playdi.
Hosili men-u senga,
Kim nomin aytar menga?

5-savol:

1-ta'rif: U dalada o'sadi. Undan kiyim-kechak, oziq-ovqat tayyorlashadi.

2-ta'rif: Oq gulim, oppoq gulim,
Husniga shaydo elim.

3-ta'rif: Dala to'la oppoq qush,
Pati yo'g'u, momiq qush.
U tufayli elimiz
To'q yashaydi yoz-u qish.

6-savol:

1-ta'rif: Uni «nog'orachi qush» deb atashadi.

2-ta'rif: U qush doim bir oyoqda turadi.

3-ta'rif: Hindistondan keladi lo'k,
Oyog'i uzun, ko'zi ko'k.

7-savol:

1-ta'rif: Tong otadi-yu, ufqda «u» ko'rinadi.

2-ta'rif: Tilla sandiq ochildi,
Ichidan zar sochildi.

3-ta'rif: Tilla barkash yaraqlaydi,
Baxt ulashib charaqlaydi.

8-savol:

1-ta'rif: O'yinda raqiblarni
Yeldiradi izidan.
Terlatsa ham ularni,
Ter chiqmaydi o'zidan.

2-ta'rif: U xuddi quyoshdek dum-dumaloq.

3-ta'rif: Uni mashhur sportchilarimiz ham katta-yu kichik barcha sevib o'ynaydi.

9-savol:

1-ta'rif: U ham baqa, ammo sakrolmaydi.

2-ta'rif: U uyasini doim o'zi bilan birga olib yuradi.

3-ta'rif: U yugurish musobaqasida quyon ustidan g'alaba qozongan bo'lsa ham, juda sekin yuradi.

10-savol:

1-ta'rif: Uning «ko'ylaklarini» biz maza qilib iste'mol qilamiz.

2-ta'rif: Ko'ylagi qavat-qavat,

Tugmalari yo'q faqat.

3-ta'rif: Pak-pakana bo'yi bor,

Yetti qavat to'ni bor.

Tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarga 10 ta topishmoq-savol bilan murojaat qilinadi va o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari uchta daraja bo'yicha aniqlanadi:

Yuqori daraja: 21-30 ball to'plagan o'quvchilar.

O'rta daraja: 11-20 ball to'plagan o'quvchilar.

Quyi daraja: 10 va undan kam ball to'plagan o'quvchilar.

Ushbu metodika ham o'quvchilarda tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Yuqori sinflarga o'tgani sayin topishmoqlarni murakkablashtirib borish ham mumkin. Bunday topishmoqlar o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, u nafaqat iqtidorning shakllanganlik darajasini aniqlashga yordam beradi, balki ular tafakkurini, dunyoqarashini o'stirishga, ziyraklik va zukkolikni shakllashtirishga ham yordam beradi.

III.2. Tajriba-sinov ishlari natijalarining yakuniy tahlili

Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarni takomillash borasida izlanishlar olib bordik. Tadqiqot davomida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologik-pedagogik xususiyatlari, iqtidor va uni shakllantirishning psixologik asoslarini o'rganish asosida iqtidorli o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishdagi faolligi, tafakkurining mustaqilligi, dunyoqarashining kengligi bilan ajralib turishini aniqladik.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar orasidan iqtidorli o'quvchilarni diagnostik usullar orqali aniqlash, ular bilan olib boriladigan ishlarni takomillashtirish uchun, dastavval, **o'quvchilarning iqtidorlilik mezonlarini** quyidagicha belgilab oldik:

1. Ma'lumotlarni xotirasida yaxshi va uzoq saqlay oladi;
2. Mustaqil, ijodiy, mantiqiy va abstrakt tafakkuri rivojlangan;
3. Har qanday vaziyatdagi muammolarni ko'ra oladi va ushbu muammolarning original yechimini topadi.
4. 3-va undan yuqori murakkablik darajasidagi o'quv topshiriqlarini mustaqil ravishda tezda hal qila oladi.

O'quv topshiriqlarini bajarilish tartibi, talablari va uni bajarishda o'quvchidan talab qilinadigan sifatlarga va murakkablik darajasiga ko'ra 6 darajaga ajratdik.

O'quv topshiriqlarining murakkablik darajalari:

1-daraja: reproduktiv xarakterga ega bo'lib, topshiriqlar darslikda berilgan namuna yoki o'qituvchi tushuntirishlari asosida hal etiladi;

2-daraja: rekonstruktiv xarakterga ega bo'lib, namunadan qisman farq qiladi;

3-daraja: topshiriqlar hayotiy vaziyatlar bilan bog'langan bo'ladi va o'quvchidan mantiqiy fikrlash talab etiladi;

4-daraja: topshiriq yechimida yangi o'quv materialini o'tgan darslarda o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'lash lozim bo'ladi va o'quvchidan abstrakt tafakkur yuritish talab etiladi;

5-daraja: topshiriqni bajarishda o'tgan o'quv yilida o'zlashtirilgan yoki boshqa fanlardan o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish va ijodkorlik talab etiladi.

6-daraja: mustaqil ravishda topshiriqlardagi muammolarni topish va uni hal etishga ijodiy yondashish talab etiladi.

Muammoga doir tadqiqot ishlarimiz bosqichda amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarining birinchi - aniqlovchi bosqichida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va qobiliyatni shakllantirishning nazariy asoslarini o'rganish asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtidorli o'quvchilar bilan olib borayotgan ishlarini o'rgandik, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar orasidan iqtidorli o'quvchilarni aniqladik. Ushbu bosqichda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning iqtidorlilik mezonlarini ham belgilab oldik.

Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida psixodiagnostika metodlari asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda iqtidorning shakllanganlik darajasini diagnostika qilish metodikasini ishlab chiqdik va ular tashkil etiladigan mashg'ulotlarda foydalaniladigan topshiriqlar tizimini tayyorladik. Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan diagnostik metodika asosida tajriba guruhidan iqtidorli o'quvchilarni aniqlab oldik. Iqtidorli o'quvchilar bilan izlanishlarimiz davomida tuzilgan topshiriqlar tizimi asosida alohida mashg'ulotlar tashkil etdik.

Muammoga doir izlanishlarimizning uchinchi – tekshirish bosqichida izlanishlarimiz davomida ishlab chiqilgan diagnostik usul va iqtidorli o'quvchilar bilan tashkil etilagan mashg'ulotlarning samaradorlik darajasini aniqlashga harakat qildik.

Buning uchun matematika fani misolida boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan iqtidorli o'quvchilar sonini aniqlashga harakat qildik va ushbu ko'rsatkichlarni tajriba avvalidagi natijalar bilan qiyosladik. Ma'lumotlar aniq bo'lishi uchun jadvalda tajriba-avvalida va tajriba oxiridagi natijalarni birgalikda keltiramiz:

3.2.1-jadval

**Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan olib borilayotgan ishlar
samaradorligi**

Sinflar	Iqtidorli o'quvchilar		Yaxshi daraja		O'rta daraja		Quyi daraja	
	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	2	2	10	14	26	22	12	16
<i>Tajriba yakunida</i>	4	2	18	16	26	24	2	12
2-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	4	4	22	20	24	24	14	10
<i>Tajriba yakunida</i>	7	5	28	22	22	24	7	7
3-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	4	2	10	12	24	22	22	20
<i>Tajriba yakunida</i>	8	3	18	16	21	23	13	15
4-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	4	4	22	28	24	24		1
<i>Tajriba yakunida</i>	7	4	28	30	21	26	2	6

Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida tajriba sinflarida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash ishlari olib borildi. Har bir sinfdagi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlab chiqilgan metodika asosida qo'shimcha mashg'ulotlar va dars davomida qo'shimcha topshiriqlar berib borildi. Qo'llanilgan bunday metodika, nafaqat iqtidorli o'quvchilar qobiliyatlarini o'stirishga, balki barcha o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini ham o'stirishga xizmat

qildi. Buni biz 3.2.1-jadvaldagi tajriba sinflarida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlaridagi o‘sislarda ham kuzatishimiz mumkin.

Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ham iqtidorli o‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan topshiriqlarni mamnuniyat bilan qabul qildilar. Ularning fikricha, bunday topshiriqlar tizimi iqtidorli o‘quvchilar qobiliyatlarini o‘stirishga, ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari dars davomida foydalanilgan bunday topshiriqlarni bajarish uchun sinfdagi boshqa o‘quvchilar ham intila boshlaganlar. Va hattoki ayrim o‘quvchilarda shu kungacha sezilmagan iqtidor nishonalari ko‘zga tashlana boshladi.

Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash uchun ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlashga doir o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari aks etgan yuqoridagi jadval ma’lumotlariga aniqlik kiritish maqsadida boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning test savollariga bergan javoblarini foiz hisobidagi tahlilini keltiramiz:

3.2.2-jadval

**Boshlang‘ich sinflarda iqtidorli o‘quvchilar bilan olib borilayotgan ishlar
samaradorligi
(foiz hisobida)**

Sinflar	Iqtidorli o‘quvchilar		Yaxshi daraja		O‘rta daraja		Quyi daraja	
	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi

1-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	4	4	20	26	52	40	24	30
<i>Tajriba yakunida</i>	8	4	36	29	52	45	4	22
2-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	6,3	7	34,5	35	37,5	41,4	21,7	17,5
<i>Tajriba yakunida</i>	11	9	44	38	34	41	11	12
3-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	6,6	3,6	16	21,4	39	39,6	38	36
<i>Tajriba yakunida</i>	13	5	30	29	35	40	22	26
4-sinf o'quvchilari <i>Tajriba avvalida</i>	6,8	6,5	38,8	42,5	40,8	36	13,6	15
<i>Tajriba yakunida</i>	12	6,5	48,4	45,5	36,6	39	3	9

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan iqtidorlilarni psixodiagnostika usullari asosida tanlab olish va ular bilan muntazam mashg'ulotlar olib borish iqtidorli o'quvchilar bilish faolligining o'sishiga va qiziqishlarining ortishiga olib kelganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari sinfdagi boshqa o'quvchilarning ham bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlari kuchaydi va ta'lim samaradorligining o'sishiga olib keldi.

III bob bo'yicha xulosa

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasidan til o'rganishga qobiliyati bo'lgan yoki ijodiy tafakkur yurita oladigan, dunyoqarashi keng o'quvchilarni tanlab olishda psixodiagnostikaga asoslangan metodikadan foydalanish yaxshi samara beradi.

2. Izlanishlarimiz davomida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari tadqiqotimiz natijalarining samarali ekanligini ko'rsatdi.

3. Tajriba-sinov ishlari davomida ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilarining iqtidorli o'quvchilar uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimiga bo'lgan talabi hali bu borada izlanishlarni va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etishini ko'rsatdi.

XULOSALAR

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatning yangilanishi uchun qo'yilgan qadam respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bilan birga uning kelajagini barpo etuvchi, yosh avlodning yangicha fikr yuritishini, dunyoqarashini, ongini shakllantirishni ham muhim masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Chunki qurilayotgan yangi jamiyatda yangicha shart- sharoitlarga moslashib, uni jahon stivilizatsiyasi bilan bir qatorda taraqqiyotga javob bera oladigan insonni shakllantirish davr talabi edi. Zero, mustaqillikning mohiyatini tushunib yetmagan, ongi va qalbiga singdirmagan hamda amaliy faoliyati dasturiga aylantirmagan hech bir yosh mustaqil respublikamizning haqiqiy fuqarosi bo'la olmaydi. Buning asosiy omillari o'quvchilarni dunyoqarashi keng, tafakkuri boy va yuksak intellektual salohiyat egasi sifatida shakllantirish, o'zlikni anglash va o'z-o'zini mustaqil boshqara olish, milliy qadriyatlarni o'rganish va ularni avaylab asrash hamda kelajak avlodga yetkazish, milliy madaniyatnigina emas, boshqa millatlar madaniyatini ham hurmat qilish, o'z ona tilini sevisish va boshqa millatlarning tiliga ham hurmat, qiyinchiliklarni yengishga tayyor bo'lish, yurt ravnaqi istiqbolini ko'ra bilish kabilardan iboratdir. Bularni amalga oshirish esa ma'lum shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi.

Ta'lim mazmunini muntazam modernizatsiyalash va uning istiqbolli modellarini belgilash, nazariy jihatdan asoslash pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni intellektual jihatdan rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki o'quvchilarni intellektual rivojlantirish deganda ularning aql-idroki, zakovati, yetukligini ta'minlash nazarda tutiladi. Shuning uchun ham, «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi», «Pedagogika fani konsepsiyasi», «Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi» hamda o'quv fanlarini o'qitish bo'yicha barcha kontsepsiyalarda o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi asosiy masalalardan biri sifatida ta'kidlangan.

Dunyoqarash shakllanishining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u xususiy ko'rinishlardan umumiy ko'rinishlarga, ya'ni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlarga rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib, takomillashib boradi. Bular orqali o'quvchilarni intellektual salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratilib, uning yordamida erkin mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak kadrlarni tayyorlashga mustahkam asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar orasidan iqtidorlilarni tanlab olish va ular qobiliyatlarini o'stirish borasida olib borgan izlanishlarimiz natijasida tadqiqot farazining to'g'ri belgilanganligiga amin bo'ldik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'zbek xalqi va jahon ta'limiy qadriyatlari tahlili natijasida bilim oluvchilarga individual yondoshgan holda intellektual rivojlantirish tajribasi alohida o'rin egallashini kuzatishimiz mumkin. Bunda, ayniqsa, qobiliyatni o'stirish markaziy o'rinni egallagan.

2. Psixologik adabiyotlarda iqtidor, qobiliyat, iste'dod, talant va daholik kabi tushunchalar hamda ularni yuzaga chiqarish va rivojlantirish muammosi chuqur tahlil qilingan. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining ushbu psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollangan bo'lishi iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayonini yengillashtiradi.

3. Iqtidorli o'quvchilarni intellektual rivojlantirish jarayoni o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlar va didaktik vositalar bilan ta'minlangandagina kutilgan samaradorlikka olib keladi. Bunday o'quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayon o'zining yaqin va uzoq maqsadlariga ega bo'lib, bu maqsadlarga erishish uchun muayyan didaktik vositalardan foydalanish taqozo etiladi.

4. O'zbek xalqi ta'lim tizimida o'quv-biluv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish sohasida muayyan tajribalar mavjud bo'lib, ammo ular o'zining ijobiy hamda salbiy jihatlariga egaligi sababli bu boarada izlanishlarni davom ettirish taqozo etiladi. O'quvchilarga guruhli yondashgan holda o'quv jarayonini tabaqalashtirish maqsadga muvofiqligi an'anaviy ta'lim jarayonida o'zini oqlaganligini amaliy tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda.

5. O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda o'qituvchi o'quv-biluv jarayonining boshqaruvchisi sifatida alohida o'rin egallab, mazkur jarayonning demokratiya va insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishini ta'minlashi lozim.

6. Olib borgan ilmiy tadqiqotimiz davomida psixologik va pedagogik adabiyotlar tahliliga va kuzatishlarimizga tayangan holda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning iqtidorlilik mezonlarini ishlab chiqildi. Hamda ushbu mezonlar asosida o'quvchilar orasidan turli fan asoslarini o'rganishga iqtidori bo'lgan o'quvchilarni aniqlash metodikasi tayyorlandi. Bunday metodika amalda sinovdan o'tkazildi va samarador ekanligi aniqlandi.

7. O'quvchilarni intellektual jihatdan samarali rivojlantirish uchun ularning intellektual faoliyat ko'rsatishlari va o'z faoliyatlari natijalarini baholashlariga alohida e'tibor qaratish muhimdir.

8. Ilmiy izlanishlarimiz davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'lim jarayonida taqdim etiladigan o'quv topshiriqlarini murakkablik darajasiga ko'ra 6 daraja bo'yicha tasniflashni tavsiya qildik. O'quv topshiriqlarni bunday tasniflash, nafaqat iqtidorli o'quvchilarni

aniqlashga, balki ta'lim jarayonida o'rta va quyi darajada bilimlarni o'zlashtiradigan o'quvchilar bilan ishlash jarayonini ham osonlashtirishga yordam beradi.

9. Har bir boshlang'ich sinf darsliklarida iqtidorli o'quvchilar uchun darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqish lozim. Yoki har bir sinf va fan bo'yicha bunday topshiriqlarni o'zida mujassamlashtirgan alohida o'quv qo'llanmalarini nashr ettirish maqsadga muvofiqdir. Bunday topshiriqlardan foydalanishda ularga o'zgartirishlar kiritish borasida ham o'qituvchilarga erkinlik berish lozim.

10. Iqtidorli o'quvchilar qobiliyatlarini o'stirishning muhim shartlaridan yana biri ta'lim jarayonida erkin, ijodiy muhit yaratishdir. Bunday muhitda bilim oladigan o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash va imkoniyatlarini turli yo'nalishlarda sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Pedagogik nuqtai nazardan ma'naviyat va milliy ma'naviy qadriyatlarni singdirish jarayoni o'quvchining ichki olamini zabt etish va boyitish jarayoni sifatida e'tirof etiladi. O'quvchilarda muayyan ilmiy bilimlar va ularni egallash ehtiyoji, intilishlarini hosil qilish uchun xalqning ma'naviy-intellektual boyliklari, qadriyatlarini egallash ehtiyojlarini tarkib toptirish lozim. Istiqboldagi ta'lim mazmuni xuddi mana shu nazariy asoslarga tayangan holda belgilab berilgandagina, o'quv jarayonining samaradorligi ortadi va o'quvchilarni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash, intellektual va ma'naviy jihatdan rivojlantirish, mikrosotsiumda munosib o'rin egallashlarini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003. -36 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. Xalq so'zi. 1995. -29 dekabr, - B. 3 .
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: 1997. 20-29 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi". // Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T: 1997. 31-61- b.
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish yunalishi. – Toshkent: 2006 – 24b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998. -684 b.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: 2008. 176 b.
8. Karimov I. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti". Xalqaro konferentsiyada so'zlagan nutqi. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.
9. Abduraxmonova N., O'rinboeva L. Matematika. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston. – 2012. 206 b.
10. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'zbekiston, 1992. -103-b.
11. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. doktori. diss... avtoref.-T.: 2003.-44 b.
12. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.:2003.-174 b.
13. Azlarov Yu. Oila pedagogikasi.-T.:O'qituvchi, 1998.-272 b.
14. Архангельский С. Лекция по научной организации учебного процесса в высшей школе.-Москва, 1976.-198 с.
15. Ахлитдинов Р. Управление образованием а Узбекистане: проблемы, поиск, решения.-Ташкент: ТАСИС, 1999.
16. Ahmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Turon-iqbol. – 2012. 160 b.
17. Андреева Г.М.Социальная психология. Учебник.- М.: Аспект Пресс, 1999.-376 с.
18. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. Питер, 2001.
19. Айзенк М. Психология для начинающих. Питер, 2000.
20. Bikbayeva N., Yangibayeva E., Girfanova K. Matematika. 4-sinf uchun darslik.

Toshkent: O'qituvchi. – 2011. 208 b.

21. Burxonov S., Xudoyorov O'., Norqulova Q. Matematika. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 206 b.

22. Беспалько В. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. –М.: IRPO. 1996.-336 с.

23. Джураева Б. Формирование педагогической культуры у будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: автореф. Дисс.к.п.н..-Т.:UzNIPI.2002.-22.с.

24. Djurayev R.H. Umumiy o'rta ta'limda integralashgan ta'lim-davr talabi. Respublika ilmiy-amaliy konferenstiyasi materiallari.T.:. 2007.294b.

25. Дьяченко В. Сотрудничество в обучении. – М.: Просвещение. 1991. – 215 с.

26. Глушков В.М. Основы безбумажной информатики. – М.: Наука, 1987. – 552 с.

27. Jumayev M.E.Yangi avlod tarbiyachilari.// Xalq ta'limi.-Toshkent, 1995. №5. 94-b.

28. Jumanazarov U.,Ergashev A., Jumanazarova D. Xalq pedagogikasi va qadriyatlar. Risola. Jizzax: 2007.-108 b.

29. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari. // Xalq ta'limi.-Toshkent, 1997. № 4. B. 4-12.

30. Ziyomammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. – Toshkent: TURON-IQBOL , 2006. – 350 b.

31. Zunnunov A. Xayrullayev M., Hotamov N., Shodiev D. O'rta Osiyoda pelagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. –Toshkent, 1996. –123-b.

32. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi. – 2011. 122-b.

33. Ибрагимов Х. Теоретические основы профессионального самовоспитания будущих учителей в педагогических училищах и колледжах. Автор.дисс.д.п.н. - М.:МПГУ. 1996. - 39 с.

34. Yuldasheva D.N. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari – Ped. fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent: O'zPFITI, 2007. – 21 b.

35. Yo'ldoshevJ.G'., S.A.Usmonov Pedagogik texnologiya asoslari.- T.:O'qituvchi,2004. 104 b.

36. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 114 b.

37. Karimova V. Psixologiya. -T., 2002.-B. 101-102.

38. Karimova V.M. va boshk. Mustaqil fikrlash. - T.: Shark.-2000.- 112 b.
39. Кларин М. Инновации в мировой педагогике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии. – Рига: НПЦ Эксперимент, 1995. –108 с.
40. Климов Э. Психология профессионала. – М:Педагогика,1996.– 400 с.
41. Mardonov Sh.Q. Pedagogik ta’lim tizimida ta’limiy qadriyatlardan foydalanish // Xalq ta’limi.– Toshkent: 2005. – № 6. – B. 24–27.
42. Matchonov S., Shojalilov A., G‘ulomova X., Sariev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis. – 2011. 240-b.
43. Маркова А. Психология труда учителя / Кн. Для учителей. –М.: Просвещение. 1993.-190 с.
44. Mahmudov M. Ona tili va ijodiy tafakkur takomili.-“O‘zbek tili” Doimiy anjumani materiallari. T.2001.-3-7 b.
45. Мерлин В. Психология индивидуальности. – Воронеж. НПО «Модек». 1996.-448 с.
46. Митина Л. Учитель как личность и профессионал. – М.: Дело. 1994.-215 с.
47. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘qituvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari.: Ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 1993. –364 b.
48. Muhammad Muso Al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1983. – 159 b.
49. Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogika fani taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dok. diss. ... -T.: 1998. -288 b.
50. Nishonaliyev U. Formirovanie lichnosti uchitelya trudovogo obucheniya: problemy i perspektivy. – T.: Fan, 1996. – 88 s.
51. Одаренные дети. \ Перевод с англ. – М.: Прогресс, 1991. – 380 s.
52. Ochilov M.O. Muallim-qalb me’mori.-T.: O‘qituvchi, 2001.- 429 b.
53. Pedagogika. A.K.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. - T.: O‘qituvchi, 1996.- 200 b.
54. Raximov B.X. Talaba - yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirish asoslari. Monografiya. T.: Fan. 2007. 152 b.
55. Safarova R. Shaxsni shakllantirish omillari. //J.Ta’lim taraqqiyoti. 2001. № 3-4. 60-63 b.
56. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.

57. Сластенин В., Мищенко А. Профессионально-педагогическая подготовка современного учителя. //Ж.Педагогика. 1991. № 10. - С. 79-84.
58. Tillayev N. Sharq allomalari jamiyat va inson tarbiyasi haqida // Xalq ta'limi. – Toshkent: 1999. – №6. – B. 71–74.
59. Тиллашев Х. Общепедагогические и дидактические идеи учебных энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи средневековья. – Т.: Фан, 1989. – 147 с.
60. Tolipov O'. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari.-T.: Fan.-2004.-167 b.
61. To'raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim- tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1992. –80 b.
62. Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005. – 23 b.
63. To'raqulov X.A., Kamolova Sh. Umuminsoniy va ilmiy qadriyatlar. // Boshlang'ich ta'lim. – Toshkent: 2007. – № 3. – B. 6 –7.
64. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston. – 2012. 222 b.
65. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. «Fan» 2005. 18-20 b.
66. Farberman B.L. va b. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.- Toshkent, 2002.-B.192
67. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi. -2012. 141 b.
68. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jildli. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 3. j. – 704 b.
69. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. (-Tuzuvchi mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil).-Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 109-b.
70. O'zbek tilining izohli lug'ati. J. II/ Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va b.q. T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – 2012. 128 b.
71. Quronov M. Yoshlarni milliy mafkuraviy tarbiyalash-texnologik masala // Ta'limda Yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar va echimlar .- T.: 1999.-32-37b.

72. G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. -2012. 127 b.
73. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili. 1-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 112 b.
74. G'afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent: Sharq. – 2012. 176 b.
75. G'afforova T., Nurullayeva Sh. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil ishlar va didaktik o'yinlar. Qarshi: Nasaf. – 2003.
76. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
77. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: o'qituvchi, 1990. –184 bet.
78. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi: O'quv qo'llanma.- T.:O'qituvchi, 1997.-248 b.

I L O V A L A R

1-ilova

O'qituvchilar uchun anketa savollari

1. Iqtidorli o'quvchi qanday bo'ladi, deb o'ylaysiz?
2. Quyidagilardan iqtidorlilik sifatlarini belgilang:
3. Iqtidor yoki qobiliyat tug'mami yoki faoliyat davomida orttiriladimi?
4. Sizningcha, bir sinfda nechtagacha yoki necha foizgacha iqtidorli o'quvchi bo'lishi mumkin?
5. O'quvchilarda iqtidorning mavjudligini qanday aniqlaysiz?

6. Sizda iqtidorli o'quvchilarga mo'ljallangan maxsus ish dasturi va o'quv materiali mavjudmi?
7. Iqtidorli o'quvchilar bilan, asosan, qachon ishlaysiz: darsdami yoki darsdan tashqari vaqtdami?
8. Siz o'qitayotgan o'quvchilar orasidan qaysi yo'nalishdagi iqtidorli o'quvchilar ko'proq?
9. Iqtidorning mavjudligi qaysi omillarga bog'liq?
10. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni takomillashtirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

2-ilova

Matematikadan test savolari


(3-sinf uchun)

- 1) 1 sutka necha soat? a) 24 v) 12 d) 100
- 2) 1 soat necha minut? a) 120 v) 60 d) 24
- 3) 1 yil necha sutkadan iborat? a) 365, 366 v) 360, d) 320
- 4) 1 yil necha oydan iborat ? a) 24 v) 365 d) 12
- 5) 1 minut necha sekund? a) 60 v) 70 d) 24


3-ilova

Iqtidorli o'quvchilar uchun matematikadan topshiriqlar tizimi

1. Ikkita qayiqlar to'xtash joyida teng miqdorda qayiqlar turibdi. Ularning 25 tasisuvga tushgandan keyin birinchi to'xtash joyida 10 ta, ikkinchisida esa 5 ta qayiq qoldi. To'xtash joyida nechtdan qayiq bo'lgan?
2. Avval hamma olmalarning yarmi, so'ng yana 3 tasi yeyilgandan keyin, likopchada 12 ta olma qoldi. Dastlab likopchada nechta olma bo'lgan?
3. Har qaysi shaklning qanday qismi bo'yalgan?



4. Ko'pburchaklardan qaysi biri aylanaga ichki chizilgan (aylananing ichiga sig'adi)?



5. Bu shakllarda nima umumiy ? 3-shakl boshqalaridan nimasi bilan farq qiladi?

